

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA  
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI  
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

«DAK» ga taqdim etaman  
Tabiiy fanlar  
fakul'teti dekani:  
\_\_\_\_\_ dots. V.Azizov  
“ \_\_\_\_\_ ” 2012 yil

**TABIIY FANLAR FAKUL'TETI**

**5440500-Geografiya kundizgi ta`lim yo`nalishi bo`yicha bakalavriat bosqichi  
bitiruvchisi**

**ASQAROVA SURAYYO ZAKIRJONOVNAning**

**« O`ZBEKISTON-ROSSIYA IQTISODIY MUNOSABATLARINING  
O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI »  
mavzuidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Ilmiy rahbar :**

**g.f.n., dots. M.Maxmudova**

**Namangan – 2012**

Ushbu **«O'zbekiston-Rossiya iqtisodiy munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari»** mavzusidagi BMI kirish, 2 ta bob, 8 ta bo'lim, xulosa, faydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Mavzuning kirish qismida tadqiqodning dolzarbligi muammoni o'rganilish darajasi, maqsadi, vazifalari bo'yicha masalalar ishni olib borishda predmeti va ob'ekti, nazariy, ilmiy, uslubiy asosi, ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarni tahlil etib ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqod tarkibi ham asoslangan. Birinchi bob "Xalqaro iqtisodiy aloqalarning mohiyati, shakllari va nazariy asoslari" deb nomlanib, unda xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi, tarkibi, tuzilmalari va shart- sharoitlari, xalqaro iqtisodiy integratsiya va iqtisodiy tashkilotlarning ish mazmuni, xalqaro ishlab chiqarish va ilmiy texnikaviy hamkorlikning mohiyati, xalqaro xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlanish va uning o'ziga xos muammolari chuqur tahlil etilgan. Ikkinchi bob "Rossiya O'zbekiston Respublikalarning iqtisodiy geografik munosabatlarini ilmiy tahlili» deb ataladi, unda O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalari iqtisodiy geografik xususiyatlari va huquqiy asoslari Rossiya Federatsiyasining tashqi iqtisodiy aloqalari tarkibi va ilmiy jihatlari Rossiya va O'zbekiston iqtisodiy munosabatlari tarkibi, shakllari, geografik xususiyatlari asosiy yo'nalishlari kerakli manbalar asosida tahlil etildi va o'rganildi. Xulosa qismida esa o'rganilgan muammo natijalari ishning qisqacha mazmuni ifoda etildi.

# **MAVZU: “O’ZBEKISTON-ROSSIYA IQTISODIY MUNOSABATLARINING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI”.**

## **R E J A**

### **KIRISH**

#### **I.BOB. XALQARO IQTISODIY ALOQALARNING MOHIYATI, SHAKLLARI VA NAZARIY ASOSLARI.**

- 1.1. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari, tarkibi va shart-sharoitlari.
- 1.2. Xalqaro iqtisodiy integratsiya va xalqaro iqtisodiy birlashmalarning xususiyatlari.
- 1.3. Xalqaro ishlab chiqarish va ilmiy texnikaviy hamkorliklarning mohiyati.
- 1.4. Xalqaro xizmat ko’rsatish sohalarining rivojlanishi va uning o’ziga xos muammolari

#### **II BOB. ROSSIYA-O’ZBEKISTON RESPUBLIKALARINING IQTISODIY GEOGRAFIK MUNOSABATLARINING ILMIY TAHLILI.**

- 2.1. O’zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalarining shakllanishi tarkibi, iqtisodiy geografik xususiyatlari.
- 2.2. Rossiya Federatsiyasi tashqi iqtisodiy aloqalarini tarkibi va iqtisodiy geografik xususiyatlari.
- 2.3. O’zbekiston Respublikasi tashqi savdo dinamikasi va investitsiya siyosatining mohiyati
- 2.4. Rossiya O’zbekiston iqtisodiy munosabatlarining tarkibiy shakllari geografik xususiyatlari va asosiy yo’nalishlari.

### **Xulosa**

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati**

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekistonning ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan o'z bozor iqtisodiyoti modelida tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish va mustahkamlash, respublikaning jahon xo'jalik aloqalariga birlashish yo'llarini belgilash alohida ahatiyatga ega. O'z modelida esa ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining rivojlanishi va respublika integratsiyasi yo'nalishlarining jahon xo'jalik aloqalarida mustahkamlanishi asosiy o'rin egallaydi.

“Ochiq” turdagi iqtisodiyotning shakllanishi sharoitida rivojlangan tashqi iqtisodiy aloqalar tizimida bo'lgan har bir davlatning xalqaro mehnat taqsimotida o'z o'rniga, dunyo xo'jalik tizimida o'z “javoniga” ega bo'lishi muhimdir.

Xatto katta hududga, ko'p millionli aholiga, xilma-xil resurslarga ega bo'lgan mamlakatni bugungi kunda boshqa mamlakatlar bilan doimiy va keng iqtisodiy aloqalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

O'zbekiston Respublikasi ham bundan mustasno emas. U o'z suverenligiga ega bo'lgan paytdan boshlab, o'z tanlagan tashqi iqtisodiyot siyosatini mustaqil xalqaro huquqiy sub'ekt sifatida olib bormoqda. Bu siyosatning asosiy maqsadi - O'zbekistonning haqiqiy ochiq iqtisodiyotini va jahon iqtisodiyoti tizimini, uning integratsiyasini izchil ro'yobga chiqarishdir.

Respublikaning xalqaro hamkorlikda va jahon mehnat taqsimotida ishtirok etishi uning tabiiy-iqtisodiy, transport, geografik va madaniy-tarixiy merosiga mos bo'lgan imkoniyatlardan kelib chiqadi.

O'zbekiston ulkan tabiiy resurslar potentsialiga ega bo'lib, birinchi navbatda, mineral xomashyo resurslariga, iqtisodiy ishlab chiqarish va aholi potentsialiga ega.

O'zbekiston tarixan Buyuk ipak yo'li kabi qadimiy savdo yo'llari tutashgan, qizg'in tashqi aloqalar va turli madaniyatlarning bir-birini o'zaro boyitish jarayoni kechgan hudud. O'rta Osiyoning markazida joylashgan. Ana shu qulay jug'rofiy o'rin-uning bugungi kunda ham uzoq – yaqin mamlakatlarni o'zaro bog'lab turuvchi ko'priklari bo'lib kelayotgani xalqaro munosabatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yurtimizga nisbatan aytilgan “Sharq darvozasi” degan ta'rif bu haqiqatning yorqin tasdig'idir.

Mamlakatning jahondagi nufuzi uning iqtisodiy va intellektual salohiyati, dunyo tsivilizatsiyasi, fan va madaniyat rivojiga qo'shgan hissi, ayni vaqtda, umume'tirof etilgan xalqaro me'yorlarga nechog'liq amal qilishi, xalqning turmush darajasi bilan belgilanadi.

Dunyo hamjamiyatidan o'ziga xos o'rin egallab borayotgan O'zbekiston o'z ichki va tashqi siyosatida ana shu mezonlarga tayanadi.

O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiyati tarkibiga kirishi xorijiy mamlakatlar, jumladan Rossiya Federatsiyasi bilan mustaqil faoliyat olib borish uchun keng imkoniyatlar ochdi. Ikki mamlakat iqtisodiy munosabatlarini rivojlantirish sohasida katta tadbirlar amalga oshirildi. Yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan yuksak texnologiyalar asosidagi mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan investitsiya loyixalarini amalga oshirishda jahondagi eng yirik va mashhur “Lupoyl”, “Razprom” kompaniyalari asosiy hamkorlar bo'lmoqda.

Rossiya O'zbekiston iqtisodiy munosabatlarining iqtisodiy-ijtimoiy geografik shart-sharoitlarining qulayligi mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarining tarixiy imkoniyatlari ham etarli darajada ekanligi o'zaro munosabatlarni yanada takomillashtirish imkonini yaratadi.

Malakatimizda Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy aloqalarga katta ahamiyat berilmoqda. Investitsion faollik barcha soha va tarmoqlarda jadal amalga oshirib kelinmoqda.

“Iqtisodiyotimizning real sektoriga qariyb 2 milliard 900 million dollar hajmida xorijiy investitsiyalar jalb qilindi. Ularning 78,8 foizi to’g’ridan-to’g’ri xorijiy investitsiyalardir”<sup>1</sup>. Chet el investitsiyalarini jalb etish yuksak darajada taraqqiy etishni hal qiluvchi omillaridan biridir.

Mavzuning dolzarbligi ham shundaki, tashqi iqtisodiy munosabatlar har qanday mamlakatni iqtisodiy salohiyatini rivojlanishida muhim o’rin tutadi.

**Muammoni o’rganilganlik darajasi.** Bugungi kunda xalqaro iqtisodiy aloqalar jahon mamlakatlari taraqqiyotida juda katta rol o’ynamoqda. Rossiya Federatsiyasi va O’zbekiston Respublikasi o’rtasidagi munosabatlar ham alohida ahamiyatga ega. Munosabatlarni mutlaqo yangi sifat bosqichi tovar va hujjatlar savdosi, kapitallar va ishchi kuchi harakati, fan-texnika tizimidagi ayriboshlashlar, xalqaro valyuta munosabatlari, turizm tobora rivojlanib va chuqurlashib bormoqda. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish samaradorligini yanada oshirish masalalari, muammolari mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov asarlarida shuningdek bir qator olimlar V.K Lomakin.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish samaradorligini yanada oshirish masalalari, muammolari mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov asarlarida shuningdek bir qator olimlar V.K Lomakin, I.A.Radionov, P.V.Sergeev A.Chistaboev va boshqalar ilmiy ishlarida yoritilgan. S.To’lamov, N.Tuxliev, A.Qodirov, A.O’lmasov, A.Soliev, A.Eshmuhammedov Q.Abirqulov, O.Abdullaev, T.Mallaboev va boshqa olimlar tomonidan ilmiy tadqiqod ishlarini olib borilgan.

Tashqi iqtisodiy aloqalar har qanday mamlakat uchun juda muhim bo’lib, uning asosiy muammolarning o’rganish va ilmiy tadqiqod olib borish doimiy zarurdir.

**Tadqiqodning maqsad va vazifalari.** Tadqiqodning maqsadi mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini yuksalishida tashqi iqtisodiy aloqalarning o’rni va ahamiyati Rossiya O’zbekiston iqtisodiy munosabatlarning asosiy mohiyati, tarkibi va xususiyatlarini tahlil etish, islohotlar jarayonida mamlakatlar o’rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, investitsiyalarni dikamikasi va jalb etishini yuksalishi. Rossiya O’zbekiston iqtisodiy imkoniyatlarini umumiy holatini o’rganish, yutuqlarini asoslash va rivojlantirish yo’nalishlarini asoslashdan iborat, vazifalarni bajarish istiqbolda ham ikki mamlakat o’rtasidagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish yo’nalishlarini ishlab chiqarishdan iborat.

**Tadqiqot ob’ekti va predmeti.** Mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqod davomida tahlil etilgan, o’rganilgan, takliflar, tahlillar, natijalar, mulohazalarni amaliyotga tadbiiq etish, istiqbol yo’nalishlarini va qo’yilgan maqsad, vazifalarni amalga oshirish uchun tadqiqodning ob’ekti sifatida xalqaro iqtisodiy munosabatlar, uning mohiyati va tarkibiy tuzilishi, O’zbekiston va Rossiya iqtisodiy munosabatlarning ahamiyati va xususiyatlarini uning samaradorligini yuksalishi olindi. Tadqiqod predmeti esa iqtisodiy geografiya fanidir.

**Tadqiqotning nazariy va uslubiy darajasi.** Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosiy xususiyatlari, mamlakatlar iqtisodiyotidagi ahamiyati, shuningdek Rossiya - O’zbekiston iqtisodiy munosabatlarini o’rganishda mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, farmonlari, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarorlari, iqtisodiy munosabatlar, investitsiyalarni jalb etish bilan bog’liq huquqiy va me’yoriy hujjatlar, mamlakatimiz olimlari va xorijiy mamlakatlar iqtisodchi va geograf olimlarining ilmiy

---

<sup>1</sup> I.Karimov. 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yil O’zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo’nalishlariga bag’ishlangan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko’taradigan yil bo’ldi” mavzusidagi ma’ruza.

fikrlari, asarlari, davlat rahbarlarining o'zaro tashriflariga oid xujjatlar bitimlar, statistik ma'lumotlar tadqiqodning nazariy asosi hisoblanadi. Tadqiqodni olib borishda iqtisodiy tahlil, statistik tizimli, tarixiylik, kartografik, iqtisodiy matematik, taqqoslash kabi usullardan keng foydalanildi.

**Tadqiqodning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqod natijalari mamlakatimiz tashqa iqtisodiy aloqalari va Rossiya O'zbekiston munosabatlarining harakterli xususiyatlarini o'rganishda iqtisodiy -ijtimoiy ilmiy asos sifatida xizmat qiladi. Mamlakatlarning o'zaro munosabatlari investitsiya dinamikasi xalqaroo munosabatlarning tarkibi va hozirgi kun darajalari ilmiy jihatdan chuqur tahlil etilgan bo'lib, yangi ma'lumotlar berilgani shuni ilmiy ahamiyatini oshiradi. Tadqiqod mavzularini amaliy ahamiyati shundaki, o'quv yurtlari talabalari, kollej va litsey o'quvchilarida ham kurs ishlari, referat va mustaqil ishlarini bajarishda o'quv-uslubiy qo'llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

**Bitiruv Malakaviy ishini tarkibiy tuzilishi.** Ushbu tadqiqod kirish, 2 ta bob, 8 ta bo'lim, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Mavzuning kirish qismida tadqiqodning dolzarbligi muammoni o'rganilish darajasi, maqsadi, vazifalari bo'yicha masalalar ishni olib borishda predmeti va ob'ekti, nazariy, ilmiy, uslubiy asosi, ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarni tahlil etib ko'rsatib o'tilgan. Tadqiqod tarkibi ham asoslangan.

Birinchi bob "Xalqaro iqtisodiy aloqalarning mohiyati, shakllari va nazariy asoslari" deb nomlanib, unda xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi, tarkibi, tuzilmalari va shart- sharoitlari, xalqaro iqtisodiy integratsiya va iqtisodiy tashkilotlarning ish mazmuni, xalqaro ishlab chiqarish va ilmiy texnikaviy hamkorlikning mohiyati, xalqaro xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlanish va uning o'ziga xos muammolari chuqur tahlil etilgan.

Ikkinchi bob "Rossiya O'zbekiston Respublikalarning iqtisodiy geografik munosabatlarini ilmiy tahlili» deb ataladi, unda O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalari iqtisodiy geografik xususiyatlari va huquqiy asoslari Rossiya Federatsiyasining tashqi iqtisodiy aloqalari tarkibi va ilmiy jihatlari Rossiya va O'zbekiston iqtisodiy munosabatlari tarkibi, shakllari, geografik xususiyatlari asosiy yo'nalishlari kerakli manbalar asosida tahlil etildi va o'rganildi.

Xulosa qismida esa o'rganilgan muammo natijalari ishning qisqacha mazmuni ifoda etildi.

Adabiyotlar ro'yxati va manbaalar ko'rsatilgan.

Ushbu tadqiqodni olib borishda o'zlarini ilmiy va uslubiy maslahatlarini bergan "Geografiya va ekologiya asoslari" kafedrasidagi ustozlarimga va ilmiy raxbarimga o'z minnatdorchiligimni bildiraman.

## **I.BOB. XALQARO IQTISODIY ALOQALARNING MOHIYATI, SHAKLLARI VA NAZARIY ASOSLARI.**

### **1.1. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari, tarkibi va shart-sharoitlari.**

Dunyo xo'jaligi g'oyat murakkab va barqaror rivojlanib borayotgan o'ziga xos qarama-qarshiliklarga ega tizimdan iborat. Bugungi kunda xalqaro iqtisodiy munosabatlar jahon mamlakatlari taraqqiyotida juda katta rol o'ynamoqda. Bu munosabatlarning mutlaqo yangi sifat bosqichi, tovar va xizmatlarning xalqaro savdosi, kapitallar va ishchi kuchi harakati, mamlakatlararo ishlab chiqarish kooperatsiyasi, fan-texnika tizimidagi ayirboshlashlar xalqaro valyuta munosabatlari, turizm (ilmiy va dam olish, davolanish, savdo) tobora rivojlanib va chuqurlashib bormoqda.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida ochiq iqtisodiyotga ega bo'lgan iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar etakchi mavqe'ga ega bo'lib, barcha tur aloqalaridagi ulushi 60% dan 80%ga qadarni tashkil etadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda 80-yillardan boshlab iqtisodiyotida muhim siljishlar yuz berganligiga qaramay, ularning «Shimol» mamlakatlaridan moliyaviy qarzlar salkam 2 trln dollarga etdi. Bu mamlakatlar iqtisodiy rivojlangan davlatlar uchun xom-ashyo, ixtisoslashgan qishloq xo'jalik mahsulotlari va arzon ishchi kuchi etkazib beradigan hududlar bo'lib qolmoqda.

Xalqaro mehnat taqsimoti tobora samarali xo'jalik yuritishga moslashmoqda va XX asr oxirgi choragida va XXI asr boshlarida xalqaro bozorga chiqarilayotgan ommaviy tovarlar nihoyatda xilma-xil bo'lib bormoqda. Ayni vaqtda, xalqaro tovar ayirboshlashdagi ommaviy mahsulotlar ishlab chiqarish tamoyilidan xilma-xil, fuqaro va innovatsiya mahsulotlari tamoyiliga o'tilmoqda.

Bu tamoyil hatto har qanday milliy iqtisodiyot o'zining xilma — il mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondira oladi degan nazariy qarashlarni inkor qilishga olib keldi.

Postindustrial jamiyat sharoitida ishlab chiqarish ixtisoslashuvi yanada chuqurlashmoqda va xalqaro geografik mehnat taqsimoti tabaqalashmoqdaki, ishlab chiqarilgan mahsulotlar tobora detallashib va «adres»li bo'lib bormoqda. Ishlab chiqarishning na faqat tayyor mahsulotlarga, balki detallarga, yarim fabrikatlarga, ishlab chiqarishning ayrim bosqichlari, elementlariga ixtisoslashuvi kuchaymoqda. Ixtisoslashuv asosida na faqat miqdoriy ko'rsatkichlar (ko'proq va nisbatan arzon narxlarda), balki sifat ko'rsatkichlari (ilm talabliligi, ishonchli va mustahkamligi, «toza»ligi va boshqalar) yotmoqda.

Ishlab chiqarishga bo'lgan yuqori sifat talablari natijasida iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga xalqaro savdo aylanmasining 60% to'g'ri kelmoqda.

Hozirgi zamon xalqaro iqtisodiy aloqalari g'oyat xilma-xil ekanligi va bu jarayon kengayib hamda chuqurlashib borayotganligi bilan ajralib turadi.

Xalqaro savdoda tovarlar yo'nalishi yoki mamlakatlar o'rtasida tovarlar ayirboshlash etakchi o'rin tutadi. Davlatlarning o'zaro iqtisodiy aloqalaridagi yangi jarayon — xalqaro iqtisodiy aloqalar tarkibidagi o'zgarishlar tashqi savdo tovarlarida hamda xalqaro transport aloqalaridagi yuklar tarkibi va ko'lamida ochiq ko'rinadi. Hozirgi zamon xalqaro iqtisodiy rivojlanishining asosiy xususiyatlaridan biri sanoat ishlab chiqarish sur'atlariga nisbatan xalqaro savdoning o'sishidir.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar hissasiga xalqaro eksportning 85,3% va xalqaro importning 83,8% to'g'ri keladi.

Ayrim iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga, jumladan AQSh ga xalqaro eksport va importning 15,5 va 19,9%, Germaniyaga 11,6 va 10,7%, Yaponiyaga 11,8 va 8,6%, Frantsiyaga 6 va 6,3% va Buyuk Britaniyaga 5,2 va 5,8% to'g'ri keladi va bu mamlakatlar xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida etakchi mavqega egadir.

Janubiy -Sharqiy Osiyodagi yangi industrial mamlakatlar hissasiga xalqaro eksport hissasining 8,5% va neftni eksport qiluvchi mamlakatlarga (OPEK) 10% to'g'ri keladi.

XX asr oxirgi o'n yilligiga kelib g'arb iqtisodiyotining uch markazi (AQSh — Germaniya — Yaponiya) o'rtasidagi aloqalar bir muncha bo'shashdi va yirik ikki eksportchi mamlakat AQSh — Germaniya 12—o'ringa tushib qoldi. Yaponiyaning xalqaro eksportdagi hisssasi o'sishiga qaramay Amerika — Yaponiya hisssasi ham qisqardi. Mintaqalari aloqalaridagi hisssasi keyingi 20 yilda 10% dan 25% ga o'sdi. Bu holat jahon xo'jaligining tobora ko'p qutbli tizimiga aylanayotganligidan va globalizatsiyalashuv jarayoni kuchayib borayotganligiga qaramay aloqalarning mahalliylishuvi, mintaqaviy berkklik tendentsiyasi ham mavjudligidan dalolat beradi.

XX asrning oxirgi choragida kutilmaganida xalqaro iqtisodiy aloqalar maydonida Yaponiyaning faol tashqi iqtisodiy faoliyati natijasida yangi industrial mamlakatlar yuzaga keldi. Bugungi kunda bu mamlakatlar Tinch okeani havzasining Sharqiy qismida mustaqil iqtisodiy mintaqani shakllantirdilar va keyingi 20 yilda ularning jahon yalpi mahsulotidagi hisssasi ikki marta ko'paydi.

Jahon eksportida 4 ta industrial mamlakatlarning hisssasi 4 marta o'sdi va 14% ga etdi. (Gonkong — 4,6% , Koreya Respublikasi - 3,3%, Singapur - 3,2%, Tayvan — 3,0%). Bu mamlakatlarda industrlashtirishning boshlang'ich bosqichida eksportga davlat subsidiyalari ajratildi, import chegaralab qo'yildi va uning o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishga e'tibor kuchaytirildi. Bugungi taraqqiyoti esa siyosiy barqarorlik, mehnat resurslarining sifati, an'ana va mamlakatlari, intizomliligi va uyushganligi hamda dengiz bo'yi transport - geografik holati qulayligi kabi omillar bilan ham harakterlanmoqda.

Dunyo mamlakatlarining ko'pchiligi uchun xalqaro tovar ayirboshlash tashqi iqtisodiy aloqalardagi ishtirokning asosiy shakli bo'lib qolmoqda. Xalqaro geografik mehnat taqsimotidagi ishtiroki darajasi yoki ochiq iqtisodiyot-eksport va import, tovarlar va xizmatlar ayirboshlashning YAIMga yoki aholi soniga nisbatan ko'rsatkichlar ifodalaydi. Birorta ham mamlakat bugungi kunda o'z ehtiyojlarini samarali barcha turdagi iste'mol tovarlari bilan to'la qoplay olmaydi. Xalqaro mehnat taqsimotiga mamlakatlarning tortilganlik darajasi ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar xalqaro tovar ayirboshlashda asosan yuqori texnologiya mahsulotlari — mashinalar, elektron jihozlar, farmatsevtika va nozik kimyo kabi ilmiy-texnika inqilobi bilan bog'liq mahsulotlar bilan ta'minlashga ixtisoslashmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa ichki bozorning hajmi katta emas. eksportga ayrim mahsulotlarni chiqarishga ixtisoslashuv esa uni xalqaro bozordagi narxlarga bog'liq qilib qo'yadi va mono ixtisoslashuvni yuzaga keltirgan.

Rossiyaning xalqaro savdodagi o'rni uning dunyo xo'jaligidagi ham siyosiy ham iqtisodiy o'rniga mos emas (2%) va eksport hamda import tarkibi rivojlanayotgan mamlakatlarda o'xshash bo'lib, eksport hajmining 4G`5 yoqilg'i, xom —ashyo, yarim fabrikatlarga, import esa tayyor mahsulotlar va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga to'g'ri keladi. eksport qilinadigan tayyor mahsulotlar tarkibida mashinasozlik mahsulotlari, birinchi navbatda, harbiy texnika va qurol—aslahalar asosiy o'rin tutmoqda.

Tashqi iqtisodiy munosabatlarda moliyaviy oqimlar ham muhim bo'lib, XX asrning 50 - yillaridan boshlab chetga kapital chiqarishda iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar o'rtasida raqobat kuchaydi va yangi bosqichga kirdi. Bu jarayon ishlab chiqarish va xalqaro tovar aylanmasiga nisbatan tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Dunyo bo'yicha to'g'ridan - to'g'ri investitsiyalar 1960 yilda 6,6 mlrd. AQSh dollaridan 1995 yil 1,2 trln. AQSh dollariga etdi. Xalqaro kapital migratsiyasida ikkinchi jahon urushidan so'ng yuzaga kelgan jarayon iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning bir-birining iqtisodiyotiga investitsiya kiritishlari bo'lib, alohida milliy xo'jaliklarni jahon xo'jaligiga yanada mahkamroq bog'lanishiga sharoit yaratdi.

G'arbiy Evropa mamlakatlarining 60% xorijiy kapitali Evropadan tashqarida joylashgan. SHundan, 2G`3 qismi xorijiy kapital AQSh, 1G`4 qism Yaponiyaga to'g'ri keladi ayni vaqtda, G'arbiy Evropa Amerika kapitalining yirik qabul qiluvchisi bo'lib, AQSh xorijiy kapitalining 50% to'g'ri keladi. AQSh va Yaponiya o'rtasidagi keskin iqtisodiy qarama-



qarshiliklarga qaramay o'zaro moliyaviy aloqalar kengayib bormoqda. Ammo, G'arbiy Evropa va AQSh o'rtasida o'zaro kapital chiqarish AQSh va Yaponiya o'rtasidagiga nisbatan yuqoridir. Keyingi yillarda AQShning G'arbiy Evropaga bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyasi xajmi Yaponiyaga bo'lgan kapital yo'nalishlaridan 12 marta yuqori bo'ldi. G'arbiy Evropaning AQShga investitsiyasi esa Yaponiyaning AQShga nisbatan investitsiyasidan 7 marta yuqoridir.

Rivojlanayotgan mamlakatlar tizimida kapital eksportining ikki markazi mavjud-OPEK mamlakatlari (neft' eksport qilishdan yiliga 150 - 200 mlrd. AQSh doll. oluvchi) va xalqaro kapital bozoriga yaqinda kirib kelgan va o'z kapitalini g'arb mamlakatlariga yo'naltirayotgan yangi industrial mamlakatlaridir.

Dunyo bo'yicha xalqaro kredit — moliyaviy munosabatlarni tartibga solishda ikkita yirik ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar — Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (MBRR) va Xalqaro valyuta fondi (MVF) aloxida o'rin tutadi. 1990 yilda Evropa tiklanish va taraqqiyot banki (EBRR) tuzildi va bu bank bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarga moliyaviy investitsiya yordami ko'rsatishni o'z zimmasiga oldi.

XXI asr, shubhasiz, xalqaro munosabatlarda butun dunyoni qamrab oladigan asr bo'ladi. Bunday sharoitda integratsiya jarayonini xalqaro institutlar va tashkilotlarda suveren davlatlar davrasini kengaytirish jarayonini faqat tarix taqozosi deb emas, balki ayrim mintaqalarda ham, shuningdek, barqarorlikning qudratli oimili, deb hisoblamoq zarur.

O'zbekiston juda qadim zamonlardan buyon ko'hna karvon yo'li-Buyuk ipak yo'lida joylashib, tashqi dunyo (G'arb bilan Sharq) bilan faol iqtisodiy aloqalar olib borgan. Mustaqillik sharofati bilan esa mamlakatimiz iqtisodiyotida yangi yo'nalish- tashqi dunyo bilan turli sohalarda hamkorlikka keng yo'l ochildi. endilikda O'zbekiston tovarlar, kapital, ishchi kuchini mamlakatlararo tranzit etishga, jahon iqtisodini integratsiyalash, yirik tarnsmilliy va xalqaro loyihani amalga oshirishga qodir.

Mamlakatda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va tartibga solish maqsadida tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar milliy banki, bojxona qo'mitasi tuzildi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida yangi strategiya ishlab chiqilib, unda eksportning xomashyoviy yo'nalishini bartaraf etish hamda xorijiy investitsiyalar oqimi kengayishiga ko'maklashish kabi yo'nalishlar belgilab olindi. Mamlakatda tashqi iqtisodiy aloqalar tizimi, ularni yo'lga qo'yishdagi asosiy tamoyillar ishlab chiqildi. Xorijiy davlatlar firma, bank tizimlari bilan aloqa poydevori barpo etish yo'lida siyosiy, huquqiy va tashkiliy omillar yaratildi. "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida", "Chet el investitsiyalari va xorijiy sarmoyadorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi va boshqa bir qator qonun va me'yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ular tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida xalqaro shartnomalar tuzish va ularni bajarish uchun sharoit yaratdi. O'zbekiston jahon hamjamiyatiga dadil kirib borib, ko'pchilik davlatlar bilan iqtisodiy, texnikaviy, savdo-sotiq va madaniy aloqalarni amalga oshirmoqda. Tashqi aloqalar ham ko'p tomonlama, ham ikki tomonlama rivojlanmoqda. Vatanimizda iqtisodiy faoliyatni keng ko'lamda rivojlantirish, yuksak taraqqiy etgan davlatlardagi ishlab chiqarishning texnologiya va iqtisodiy jarayonlari bilan tanishish, xorijiy sarmoyadorlar bilan hamkorlikda qo'shma korxonalar, supermarketlar, savdo filiallari tashkil qilish imkoniyati yaratilmoqda. Ayniqsa, Rossiya bilan bo'lgan iqtisodiy munosabatlarning o'rni va ahamiyati juda kattadir

## **1.2. Xalqaro iqtisodiy integratsiya va xalqaro iqtisodiy birlashmalarning xususiyatlari.**

Xalqaro iqtisodiy integratsiya bu - turli shakl va turli darajadagi o'zaro muvofiqlashgan ishlab chiqarish tarkibining milliy iqtisodiyotlar mehnat taqsimoti asosidagi chuqur va barqaror aloqalaridan iborat mamlakatlarning xo'jalik — siyosiy birlashuv (qo'shiluv) jarayonidir. Mikrodarajada bu jarayon kapitalning faoliyati orqali alohida xo'jalik sub'ektlarining (korxonalar va firmalar) qo'shni mamlakatlar bilan iqtisodiy

kelishuvlar tizimining shakllantirish orqali xorijda filiallarni tashkillashidir. Davlatlararo darajada integratsiya davlatlararo iqtisodiy birlashmalarning shakllanishi asosida muvofiqlashgan siyosatni amalga oshirishdir.

Firmalararo aloqalarning gurkirab rivojlanishi davlatlararo (ayrim hollarda davlatlar ustidan ham) tartiblash zaruriyatini yuzaga keltirmoqda va mavjud mintaqada mamlakatlararo tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchlarining erkin harakat qilishini ta'minlash, kelishilgan iqtisodiy ilmiy - texnikaviy, moliyaviy va valyuta, ijtimoiy, tashqi va mudofaa siyosatini amalga oshirishni taqozo qiladi. Natijada, yagona valyuta, infratuzilmalar, umumiy iqtisodiy proportsiyalar, moliya fondi, umumiy davlatlararo yoki davlatlardan ustun turgan boshqaruv organlari, yaxlit mintaqaviy xo'jalik majmualarining tuzilishiga olib kelmoqda.

Iqtisodiy integratsiyaning eng oddiy shakli erkin savdo mintaqalari bo'lib, ishtirokchi mamlakatlar o'rtasida savdo cheklovlari, birinchi navbatda bojxona bojlari bekor qilinadi.

Iqtisodiy integratsiyaning ikkinchi, bir muncha yuqoriroq shakli-bojxona ittifoqi bo'lib, erkin savdo mintaqasi bilan birgalikda yagona tashqi savdo ta'rifi va uchinchi mamlakatga nisbatan yagona tashqi savdo siyosati amalga oshiriladi. Har ikki xolatda ham davlatlararo munosabatlar qatnashuvchi mamlakatlar uchun bir xil imkoniyatlar yaratadi, o'zaro foydali savdo va moliyaviy aloqalarni ta'minlaydi.

Iqtisodiy integratsiyaning murakkab shakli umumiy bozor bo'lib, uning qatnashchilari uchun yagona erkin bozor o'zaro foydali savdo, yagona tashqi tarif, kapitalning va ishchi kuchining erkin harakati hamda kelishilgan tashqi siyosat xos.

Davlatlararo iqtisodiy integratsiyaning yanada murakkabroq shakli iqtisodiy (valyuta) ittifoqidir. Bu ittifoq yuqoridagi holatlar bilan birgalikda umumiy iqtisodiy va valyuta - moliyaviy siyosatni o'z ichiga oladi.

Iqtisodiy integratsiya jarayonlarining rivojlanishi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- xo'jalik (iqtisodiy — ijtimoiy) xayotining integratsiyalashuvining o'sishi;
- xalqaro mehnat taqsimotining yanada chuqurlashuvi;
- ilmiy - texnika inqilobi o'zining harakteri va yo'nalishlari jihatdan xalqaro aqamiyat kasb etishi;
- milliy iqtisodiyotlarning ochiqlik darajasining ortishi.

Iqtisodiyotlar integratsiyalashuvi mamlakatlar o'rtasidagi barqaror iqtisodiy munosabatlar jarayonini ifodalaydi va ishlab chiqarish milliy xo'jalik doirasidan chiqib ketadi. Integratsiyalashuv jarayonining rivojlanishiga transmilliy korporatsiyalar faoliyati kuchli ta'sir etmoqda.

Xalqaro integratsiya jarayonlari rivojlanishining ikkinchi omili ITI ta'sirida xalqaro mehnat taqsimotidagi chuqur tarkibiy o'zgarishlar va siljishlar bilan bog'liqdir. Xalqaro mehnat taqsimoti, bir tomondan, millatlar va mamlakatlar o'rtasidagi stixiyali tarzda ishlab chiqarish majburiyatlarining taqsimlanishi va mamlakatlarning ma'lum ishlab chiqarish mahsulotlariga ixtisoslashuvini ifodalasa, ikkinchi tomondan ishlab chiqarish majburiyatlarini firmalar ichida va o'rtasida bir tekisda taqsimlanishini ifodalaydi. Ayni vaqtda ichki tarmoqlararo ixtisoslashuv jarayoni kuchayib bormoqda.

Mamlakatlar ochiq iqtisodiyotining shakllanishida mamlakatlardagi eksport ishlab chiqarishni rag'batlantirishdan iborat davlatning tashqi iqtisodiy strategiyasi- ya'ni xorijdan kapital, texnologiya, malakali kadrlar oqimini rag'batlantirishning qulay huquqiy asoslarini yaratish hamda xorijiy firmalar bilan ishlab chiqarish, kooperatsion aloqalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Dunyo xo'jaligi tizimida mintaqaviy integratsion majmualar qandaydir stixiyali, davlatlar va davlatlararo boshqaruv organlariga bog'liq bo'lmagan holda yuzaga kelmaydi. Balki bu integratsion majmualar o'zining shartnoma-huquqii asoslariga egadir. Mintaqadagi

bir guruh mamlakatlar o'zaro shartnomalar asosida mintaqaviy integratsion majmuaga birlashib, ijtimoiy - iqtisodiy va siesiy hayotning turli jabhalarida yaxlit mintaqaviy o'zaro manfaatli siyosatni (integratsiyaga tortilgan barcha mamlakatlar uchun) amalga oshiradilar.

Ko'p sohali integratsion guruxlar o'rtasida G'arbiy Evropada-EH va EESA<sup>1</sup>, SHimoliy Amerikada-NAFTA (NAFTA)<sup>2</sup>, Osiyo-Tinch okean mintaqasida - Osiyo-Tinch okean iqtisodiy hamkorligini (OTOIH) alohida ajratish mumkin.

XXI asr boshlarida G'arbiy Evropada boshqa mintaqaviy integratsiya jarayonlariga nisbatan mustahkamroq huquqiy, iqtisodiy asoslarga ega bulgan, etuk xalqaro integratsiya shakli -Evropa hamjamiyati (EH) yuzaga keldi. 1993 yilning 1 noyabriga qadar G'arbiy Evropadagi bu integratsion gruppировka Evropa hamjamiyati deb yuritildi.

XXI asr arafasiga kelib EH doirasida umumiy bozorni, davlatlararo boshqaruv tizimini, iqtisodiy-valyuta va siyosiy ittifoqyni tuzish orqali amalda yagona etuk iqtisodiy integratsion mintaq shakllandi. EH ga teng huquqli asosda 15 ta mamlakat - Avstriya, Bel'giya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Gretsiya, Daniya, Irlandiya, Ispaniya, Italiya, Lyuksemburg, Niderlandiya, Portugaliya, Finlyandiya, Frantsiya va SHvetsiya a'zodir.

EH doirasida dunyo aholisining 7% yashagani holda xalqaro savdoning 40% dan ortig'i va valyuta zahiralarning 36% to'g'ri keladi.

Ayni vaqtda, dunyo xo'jaligida EH eng kuchli integratsion hudud, AQSh, Yaponiya va yangi industrial mamlakatlar sherigi hamda kuchli raqobatchisidir.

2002 yildan boshlab yagona valyuta (evro) hamda umumiy tashqi siyosatni ishlab chiqish, Evroparlament rolini kuchaytirish, yagona fuqarolikni kiritish, xavfsizlikni ta'minlash va boshqa yo'nalishlardagi ishlar amalga oshirilmoqda.

Osiyo va Tinch okeani mintaqasida eng yirik va etuk integratsion gruppировka — iqtisodiy jihatdan rivojlangan Yaponiya, Avstraliya va Yangi Zellandiyani, Sharqiy va Janubi — Sharqiy Osiyodagi ko'pchilik mamlakatlarni, jumladan ASEAN (Janubi — Sharqiy Osiyo mamlakatlari

assotsiatsiyasi) mintaqaviy guruhiga ishtirokchi mamlakatlarni, Xitoy va Okeaniya hududlarini o'z ichiga oladi. XX asr 90 — yillardan bu iqtisodiy gruppировkada Rossiya qatnashish istagini bildirmoqda.

Osiyo va Tinch Okean iqtisodiy hamkorligi — OTIH mintaqaviy gruppировka sifatida rasmiy ravishda 90 — yillardan boshlab intensiv hamkorlik yo'llarini qidirmoqda. Ayni vaqtda, bu tashkilot guyo o'ziga xos bloklardan iborat. Jumladan, Indoneziya, Malayziya, Fillippin, Singapur, Tayland, Bruney mamlakatlarini birlashtirgan ASEAN 1967 yilda tuzilgan va uning ishtirokchi — mamlakatlari o'z oldilariga 15 yil mobaynida bosqichma — bosqich ta'riflarni pasaytirish orqali erkin savdo mintaqasini tuzish vazifasini qo'yganlar. Ayni vaqtda, ASEAN mamlakatlari xo'jalik tizimi yaqinlashuvida bir —biri iqtisodiyotini to'ldiruvchi ichki — mintaqaviy savdo va boshqa iqtisodiy — xo'jalik aloqalari jarayoni keng rivojlangan emas.

Amalda, ASEAN mamlakatlari har birining iqtisodiyoti Yaponiya, AQSH va yangi industrial mamlakatlar (Syangan, Janubiy Koreya, Tayvan) iqtisodiyoti bilan chambarchas bog'langan. Osiyo —Tinch okean savdosining anchagina qismi YApon, Amerika, Kanada, Tayvan, Janubiy Koreya korporatsiyalarining mahalliy firmalari o'rtasidagi iqtisodiy ishlab chiqarish aloqalaridan iborat. Konfutsiy madaniyati tarqalgan mamlakatlarda Xitoyning roli kuchayib bormoqda. Yaponiya, Amerika, Avstraliyaning o'zaro aloqalari muhim o'rin tutadi.

MDH 1991 yil 8 dekabrda Minsk shahrida, Sobiq Ittifoqning barham topishi munosabati bilan shakllandi. Uning vujudga kelishi xaqidagi hujjat — bitimga dastlab uch mustaqil davlat — Rossiya Federatsiyasi, Ukraina va Belarus' rahbarlari imzo chekdilar. Bitimni imzolagan davlatlarning hududiy butunligini tan olish, hurmat qilish hamda amaldagi chegaralar, ularning ochiqligi va fuqarolarning harakati erkinligi e'tirof etildi.

MDH a'zolari xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, harbiy harajat va qurollarni qisqartirish chora — tadbirlarini amalga oshirishda hamkorlik qilishga kelishib oldilar. Hozircha yuzdan ortiq normativ va tavsifiy hujjatlar qabul qilindi. Shu bilan birga, tomonlar

bir — birlarining yadrosiz zona va betaraf davlat statusiga erishish uchun olib boriladigan harakatlarini hurmatlaydilar.

MDHning asosiy maqsadlarini amalga oshirish uchun Hamdo'stlik davlatlari o'zaro munosabatlarida quyidagi qoidalarga rioya qiladilar:

- davlat suverenitetini o'zaro tan olish va hurmat qilish;
- teng huquqlik va bir - birlarining ichki ishlariga aralashmaslik; . iqtisodiy kuch yoki boshqa tayziq uslublarini qo'llashdan voz kechish;
- bahsli muammolarni kelishtiruvchi vositalar va xalqaro huquqning boshqa hamma e'tirof qilgan tamoyil va normalari asosida hal qilish.

SHu bilan birga, 1993 yil 3-4 yanvarda Toshkentda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan, Urta Osiyo va Qozog'iston mamlakatlari davlat va hukumat rahbarlari uchrashib, bozor munosabatlariga o'tish davrida mintaqa davlatlaridagi siyosat va iqtisodiy ahvolni barqarorlashtirish maqsadida, Markaziy Osiyo Iqtisodii Hamkorlik Tashkilotini tuzdilar.

Jahon xo'jaligi tizimida xalqaro iqtisodiy tashkilotlar — Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT), 1961 yil Evropa iqtisodiy hamkorligi asosida tuzilgan bo'lib sanoati rivojlangan mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy va sotsial hamkorlikni mustahkamlashdan iborat. Bu tashkilotning asosiy vazifasi moliyaviy barqarorlik asosida iqtisodiy o'sishni ta'minlash, ko'p tomonlama asosida xalqaro savdoda faol ishtirok etish hamda rivojlanayotgan mamlakatlarga yordam berishdan iborat. IHTT a'zolari Avstraliya, Avstriya, Bel'giya, Gretsiya, Daniya, Irlandiya, Islandiya, Italiya, Kanada, Lyuksemburg, Niderlandiya, Yangi Zellandiya, Norvegiya, Portugaliya, AQSh, Turkiya, Finlyandiya, Frantsiya, GFR, Shveysariya, Shvetsiya va Yaponiya mamlakatlaridir.

Savdo sohasidagi xalqaro tashkilotlar — savdo va ta'riflar bo'yicha Bosh bitim (GATT) — 1995 yildan Umumjahon savdo tashkiloti (UST), 1948 yil tuzilgan bo'lib, unga 100 dan ortiq mamlakatlar a'zo. Xalqaro savdoning 90% ga yaqini UST qoidalari asosida amalga oshadi. Neft' eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti (OPEK) — 1960 yilda tuzilgan bo'lib, qatnashuvchi — mamlakatlarning neft' sotish siyosatini koordinatsiya qiladi. OPEK a'zolari: Jazoir, Venesuela, Gabon, Indoneziya, Iroq, eron, Liviya, Qatar, Quvayt, Nigeriya, BAA, Saudiya Arabistoni va ekvador. SHuningdek, mis, kakao eksport qiluvchi tashkilotlar, sanoat, qishloq xo'jaligi, energetika, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohalari (servis) bo'yicha xalqaro tashkilotlar ham mavjud. Bunday xalqaro tashkilotlar jumlasiga BMT ning ixtisoslashgan kengash va qo'mitalari iqtisodiy va ijtimoiy kengashlari (EKOSOS, YUNKTAD, PROON, YUNIDO, FAO va boshq.) kiradi.

Xalqaro valyuta — moliya tizimida Xalqaro Valyuta Fondi (XVF), Umumjahon Banki (XB), Evropa tiklanish va taraqqiyoti banki (ETTB), Xalqaro hisob — kitoblar banki (XHB), Osiyo taraqqiyot banki (OTB), Islom taraqqiyot banki (ITB) va boshqa agentlik, xalqaro markazlar mavjud.

### **1.3. Xalqaro ishlab chiqarish va ilmiy texnikaviy hamkorliklarning mohiyati.**

Ishlab chiqarish sohalaridagi xalqaro aloqalar dinamikasi, yo'nalishi va harakteri integratsion jarayonlarning ishlab chiqarish va muomila sohalarining rivojlanishi va mohiyatiga bog'liq qilib qo'ymoqda. Savdo aloqalari xalqaro ishlab chiqarish aloqalarining yakunlovchi bosqichi bo'lib qolmoqda. Rivojlanish jarayoniga ko'ra xalqaro ishlab chiqarish aloqalarini bir nechta bosqichga bo'lish mumkin.

**Birinchi bosdich.** Mamlakatning xalqaro ixtisoslashuvi umumiy mehnat taqsimoti asosida bir tarmoq mahsulotini (masalan, sanoat mahsuloti) boshqa mahsulotga (masalan, qishloq xo'jaligi) ayirboshlangan.

**Ikkinchi bosqich.** Moddiy ishlab chiqarish tarkibining murakkablashuvi, ya'ni sanoat tarmoqlari tabaqalanishiga bog'liq qisman mehnat taqsimoti asosida tarmoqlararo ixtisoslashuvining intensiv rivojlanishi bilan harakterlandi.

**Uchinchi bosqich.** Qisman va alohida mehnat taqsimoti asosida xalqaro tarmoq ixtisoslashuvining chuqurlashuvi jarayoni boshlandi. Bu mahsulotlarni ommaviy ishlab chiqarish maqsadlarida, texnika va texnologiya asosida ishlab chiqarish harajatlarini qisqartirish va yuqori mehnat unumdorligiga erishish uchun alohida mahsulotlar (agregatlar, detallar va uzellar) ishlab chiqarishni bildiradi. Tabiiyki, bunday ixtisoslashuv yakuniy mahsulotlar (mashinalar, agregatlar ishlab chiqarish ob'ektlari) ishlab chiqarish kooperatsion aloqalarni taqozo qiladi. Ishlab chiqarish hamkorligida ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsion aloqalar bir — biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Shunday qilib, xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi uning qatnashchilarini aniq ishlab chiqarish maqsadlarida birlashtiradi.

Xalqaro ishlab chiqarish kooperasiyasi turli mamlakatlardagi yuridik shaxslarning mehnatini qo'shilishi va doimiy o'zaro aloqadorligini, ishlab chiqarish jarayonlarining o'zaro bog'liqligini ifodalaydi.

Xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasining asosiy shakllari:

- a) ixtisoslashuv va kooperatsiya asosida ishlab chiqarish-sotish tizimini muvofiqlashtirish;
- b) birgalikda qo'shma korxonalarni tashkillash va boshqarish;
- c) ishlab chiqarish ob'ektlarini va boshqa maqsadlardagi qurilish ishlarini olib borish;
- d) ilmiy — texnik hamkorlikdan iborat.

Xalqaro ixtisoslashuv asosida birgalikda ishlab chiqarish (qo'shma korxonalar) xalqaro integratsion jarayonlarning yuqori darajada rivojlanganlik darajasini va turli mamlakatlar firmalari o'rtasidagi biqiq aloqalarni ifodalaydi.

Ishlab chiqarish hamkorligining harakterli belgilari:

- sheriklar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning uzoq muddatli, barqaror va muntazamligi ;
- turli mamlakatlardagi (firmalar) sanoat korxonalarining ishlab chiqarish kooperatsiyasining sub'ektlari sifatida mavjuddigi;
- kooperatsiyada tayyor mahsulotlar, komponentlar, mahsulotlarning turli qismlarini birgalikda ishlab chiqarilishini, texnologiyaning shartnomaviy mustahkamlanishi;
- o'zaro kelishilgan dastur doirasida topshiriqlarning taqsimlanishi va ishlab chiqarish kooperatsiyasi asosiy maqsadlarining mustahkamlanishi;
- xalqaro hamkorlik doirasida ishlab chiqarish dasturlarini amalga oshirish maqsadida sheriklarning o'zaro yoki bir tomonlama tovarlar ta'minotini ta'minlash (bu oddiy shartnoma asosidagi savdo — sotiqdan iborat bo'lib qolmasligi kerak).

**Xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik.** Ilmiy —texnik hamkorlikda ilmiy, moliyaviy va material resurslarni birlashtirish negizida birgalikda ilmiy —tadqiqot yoki mutaxassislar guruhlar yoki tashkilotlarni tuzish orqali ilmiy—tadqiqot va konstruktorlik — loyiha ishlarini o'zaro birgalikdagi dasturlar ko'rinishida amalga oshirishdir.

Bunday ilmiy — texnik hamkorlikning oqilona va samarali shakllari:

- yangi va eng yangi ilmiy—texnik g'oyalar, konstruktorlik ishlari, marketing tadqiqotlari va texnik — iqtisodiy hisob — kitoblardan foydalanish uchun umumiy ilmiy — tadqiqot markazlari, byurolari, laboratoriya va institutlar, ijodiy guruxlar tashkillash; i firmalar va korporatsiyalarning texnik — iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash, amaldagi texnika va texnologik jarayonlarni takomillashtirish maqsadlarida birgalikda tajribalar o'tkazish va ishlab chiqarishga tadbiq etish; i xorijiy mamlakatlarda va yuqori samarali firmalarda ishlab chiqarish jarayonlarini va mehnatni tashkil etish tajribalarini o'rganish hamda birgalikda tadbiq qilish; i firmalar va korporatsiyalarning amalga oshirayotgan ilmiy

— texnik siyosati va uning istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha maslahatlar va joriy koordinatsiyasini amalga oshirish;

birgalikda yuqori malakali, iqtidorli, ilmiy — tadqiqot ishlarini olib boruvchi tadqiqotchilari — xodimlarni tayyorlashni tashkil qilishdan iborat.

Ilmiy — tadqiqot va konstruktorlik tajriba ishlari natijalarining samaradorligi bir nechta yo'nalishlardan:

- nazariy ahamiyati
- texnik ahamiyati — hamkorlik qilayotgan mamlakatlar va firmalar uchun texnik darajasi harakteristikasi va raqobatbardoshligidan;
- amaliy ahamiyati — iqtisodiyot tarmoqlarida firma va korporatsiyalarda qo'llash, uning ko'lamini va samara berish natijalaridan ;
- istiqbolli tadbirlar - ilmiy — tadqiqot natijalarini iqtisodiyot tizimlarida samarali qo'llash vaqti;
- ishlanmalarining taxmiiy qiymati — ilmiy tadqiqot va tajriba — konstruktorlik ishlariga qilingan harajat, mutaxassislar tayyorlash, kerakli jihozlarni yaratish va o'rnatish, axborot ta'minotidan;
- ishlanma vaqti, tadqiqotlar va uni o'tkazish uchun moddiy—texnika bazasini tayyorlash, natijalarini olish va tekshirishdan o'tkazish va uni tadbiriq etish vaqtidan ;
- rejalarni va natijalarni realizatsiya qilish ximoli, ishlanayotgan muammolarning ilmiy va moddiy bazasiga mos bog'liqligi, hamkorlikning tanlangan shaklining to'g'riligidan iboratdir.

Tadbiriq qilingan natijalarning iqtisodiy samaradorligi sof samara (foйда), harajatlarning qoplash vaqti, milliy va xalqaro darajadagi raqobatbardoshlikning iqtisodiy ko'rsatkichlaridan iboratdir.

#### **1.4. Xalqaro xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishi va uning o'ziga xos muammolari**

XX asrning 80— yillaridan boshlab jahon xo'jaligi tizimida sotsial muammolar etakchi o'rinni egallay boshladi. Xalqaro iqtisodiyotning uchinchi sohasi aholi va xo'jalik tizimini bir me'yorda faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi noishlab chiqarish tizimi to'la shakllandi. Bugungi kunda uchinchi sohadan to'rtinchi sohani — ilm, ilmiy — tadqiqotlar va tajriba — konstruktorlik ishlari, axborotlar industriyasi hamda bilimlar sohalarini — ajratilmoqda.

Shuningdek, noishlab chiqarish sohalariga transport va butun ishlab chiqarish infratuzilmalarini ham kiritish mumkin. Bu uchinchi sohalar g'arbdagi sanoati rivojlangan mamlakatlarda yuqori sur'atlar bilan o'smoqda va tarkiban o'zgarimoqda. Asosiy ishlab chiqarish tarmoqlarida tarmoq, hududiy va tashkiliy o'zgarishlar ishlab chiqarish xizmatlari rolining kengayib borishiga olib kelmoqda.

Ishlab chiqarish xizmatlari quyidagicha farqlanadi: a) iste'mol sohalarini; b) ta'minot sohalarini; v) bog'lovchilik vazifasini bajarish. Ishlab chiqarish xizmatlarining bu xususiyati mijozlarga yuqori sifatli mutlaqo yangi xizmatlarni ta'minlash imkonini beradi.

XX asrning oxirgi choragida iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar uchinchi sektorida chuqur o'zgarishlar va tez o'sish yuz berdi. G'arbiy va Sharqiy Evropa mamlakatlarida iqtisodiy faol aholining bandlik tarkibi o'zgarishlarini taqqoslanadigan bo'lsa bu ikki mintaqa orasidagi farq 30 yilni tashkil qiladi.

Moddiy ishlab chiqarish tarkibida ham tarmoq, ham tashkiliy va asta — sekin hududiy o'zgarishlarga olib keldi. Postindustrial jamiyatning belgilardan biri kichik tadbirkorlikning rivojlanishi bo'lib, bu innovatsiyani tadbiriq qilish, iste'mol bozorlarining tez o'zgaruvchi ehtiyojlariga moslashuvi va «xilma — xil» maxsulotlar tamoyiliga o'tishni bildiradi.

Postindustrial jamiyatda iqtisodiyotning ochiqligiga «ko'rinmas eksport» katta ta'sir ko'rsatadi va uni beshta guruxga: a) transport xizmati; b) moliyaviy ; v) turizm; g) aloqa — axborot ma'lumotlarni taklif qilish; d) mutaxassislik bo'yicha davlat va shaxsiy xizmatlar

(sug'urta, reklama, buxgalteriya — auditorlik faoliyati, menejment va boshq.) bo'lish mumkin.

Reklama keyingi 20 yil ichida (1992—2012 yillar) servis faoliyatining bosh yo'nalishi bo'lib qoldi va reklama harajatlari 65 mlrd. AQSh dollaridan 200 mlrd. AQSh doll.ga etdi yoki 3 martadan ko'proq o'sdi. SHundan, gazetalardagi reklama 30 mlrd. doll. dan 90 mlrd. doll. ga va televideniya 20 mlrd doll. dan 60 mlrd doll.ga ko'paydi. Ayniqsa, Amerika reklama firmalari G'arbiy Evropa bozorida faol bo'lib, keyingi 10 yilda uning agentliklari 60 dan 250 taga etdi. Frantsiyada beshta yirik reklama firmasiga reklama biznes aylanmasining 60% qiymati to'g'ri keladi. G'arbiy Evropa uchta eng yirik reklama agentligiga reklama harajatlarining 34% to'g'ri keladi. Xalqaro reklama biznesi bir nechta markazlarda to'plangan.

Shuningdek, yirik reklama markazlariga Amsterdam, Stokgol'm, Dyussel'dorf, Madrid, Milan, Lissabon shaharlari kiradi. 10 ta eng yirik reklama agentligidan beshtasi AQSh ga, ikkitadan Yaponiya va Buyuk Britaniyaga, bitta Frantsiyaga to'ri keladi. Reklama agentliklari o'z reklamalarini ishlab chiqarish quvvatlari va poligrafiya bazasi rivojlangan markazlarda emas, balki ommaviy axborot vositalari rivojlangan, madaniyat muassasalari, ovoz yozish studiyalari, muzika ansambllari, sport o'yingohlari, ko'ngil ochar joylar va boshq. joylarga joylashtirmoqdalar.

Kommunikatsiya xizmatlari yangi bosqichining boshlanishi asta —sekin transport xizmatini ham siqib chiqarmoqda. Bu firma va kompaniya xodimlariga yirik shaharlardagi ofislarda o'tirmay ham o'zining ofis bilan to'la aloqasini saqlab qolish imkonini yaratmoqda. Bunda bir vaqtning o'zida 100 ming telefon so'zlashuvi imkonini beruvchi shisha tolali aloqa tizimidan foydalanilmoqda.

Buyuk Britaniyada telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanib ishlayotgan «uydagilar» 1,2 mln. kishidan, AQSh da 4 mln. kishidan (deyarli 4% bandlar) iborat. Aloqa vositasi sifatida uyali telefonlar muxim o'rin tutmoqda.

Ishlab chiqarish xizmati faoliyatiga moliya —kredit soxalarini kiritish mumkin. Xalqaro moliya-kredit tizimi kapitalning kontsentratsiyasidan tashqari, xalqaro kapital qo'shilishi va yirik bank markazlarining

Etakchi bank markazlari Parij, London, Frankfurt bo'lsada, London banklari va Germaniya banklari aktivlari yuqori daromadlilik bilan ajralib turadi.

Shuningdek, «ko'rinmas eksportda» ko'pgina mamlakatlar taklif qiladigan xorijiy mamlakatlar yuklarini tashuvchi «dengiz izvoshlari» katta o'rin tutadi.

Bundai «dengiz izvoshi»chilari yirik kemachilik kompaniyalari, birinchi navbatda Norvegiya va Gretsiyadir. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya va ish yuzasidan (boshqaruv-konsul'tatsiya) xalqaro xizmatlar tez rivojlanmoqda. Xalqaro xizmatlarda muhandislik - konsul'tatsiya, ilmiy – tadqiqot xizmatlari va konstruktorlik ishlari muhim o'rin tutmoqda va xalqaro savdoning bir qismi bo'lib qolmoqda.

Asosiy xizmatlar savdosi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar doirasida amalga oshirilmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlar va yangi industrial mamlakatlar, Hindiston, Meksika hissasiga 1/5 qism xizmatlar eksporti qiymati tug'ri keladi. Xizmatlar eksport kilayotgan mamlakatlarning kupchiligida tushumlari ko'payib, tashqi savdo balansi kamomadini qoplamoqda.

Moliyaviy bitimlarni tezlashtirish maqsadlarida N'yu-Iork, Tokio, London, Parij, Frankfurt, Amsterdam, TSyurix, Tokio, Singapur, Syangan va boshq. xalqaro moliya markazlarida 20 ga yaqin komp'yuter markazlari tuzildi.

«Ko'rinmas eksport» xajmining 25% transport xizmati, 20% xalqaro turizm, qolgan 55% sug'urta kommunikatsiya, ma'lumotlarni qayta ishlash va uzatish, reklama, texnik - muhandislik loyiha xizmatlari, kinoprokat, konsul'tatsiya xizmatlariga to'g'ri keladi.

Mamlakatlar ichida Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston Respublikalarining iqtisodiy aloqalari dunyo mamlakatlari bilan bo'lgan iqtisodiy munosabatlari o'ziga xos o'ringa ega. Yuqorida ko'rib o'tilgan xalqaro integratsiya jarayonida ishtiroki va o'zni, ahamiyati ushbu

davlatlarda ham yuksalib bormoqda. O'zbekiston va Rossiya davlatlari tashqi iqtisodiy aloqalari geografiyasini keyingi bobda chuqurroq tahlil etiladi.

## **II Bob. Rossiya-O'zbekiston Respublikalarining iqtisodiy geografik munosabatlarining ilmiy tahlili.**

### **2.1. O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalarining shakllanishi tarkibi, iqtisodiy geografik xususiyatlari.**

Mamlakatimizda olib borilgan islohatlarning ilk davridan e'tiboran respublikaning eksport salohiyatini rivojlantirish va yanada mustahkamlash, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirishga asosiy e'tibor qaratildi.

“O'zbekiston mustaqillikkacha bo'lgan davrdagi chetga xom ashyo chiqaradigan va tayyor mahsulotlar, asosan iste'mol tovarlarini olib kiradigan mamlakatdan bugungi kunda tobora qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan tayyor mahsulotlarni eksport qiladigan va ko'proq ishlab chiqarishni texnik hamda texnologik modernizatsiya qilish uchun mo'ljallangan yuqori texnologiyalar asosidagi uskunalarni eksport qiladigan mamlakatga aylanib bormoqda. eksportning tovar tarkibini diversifikatsiya qilish natijasida mamlakatimiz yakka xokimligi oqibati bo'lgan paxta tolasi eksportiga qaramlikdan xolis bo'ldi. Uning eksportidagi ulushi kamayib, 1990 yildagi 59,7 foizdan 2010 yilda 11,3 foizga tushdi”<sup>2</sup>. 2011 yilda eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushi 60 foizni tashkil etdi, xolbuki 2000 yilda bu ko'rsatkich qariyb 46 foizni tashkil etgan edi. Prezidentimiz o'z ma'ruzasida O'zbekiston iqtisodiyotini barqaror va munosib rivojlanib borayotganini 2005 yildan boshlab Davlat byudjeti profitsi bilan bajarilayotgani ham yaqqol tasdiqlab turganini ta'kidlab o'tdi.

Binobarin, O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy siyosati mustaqillikning dastlabki bosqichlarida quyidagi vazifalarni hal etdi:

- eksport import operatsiyalarini markazlashtirishdan chiqarish;
- davlat extiyojlari uchun tovarlar eksporti va importi ustidan nazoratni kuchaytirish;
- davlat uchun strategik muhim hisoblanmaydigan tovarlar eksportini soddalashtirish;

---

<sup>2</sup> Karimov I.A. 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ldi” mavzusidagi ma'ruzadan.



- strategik muhim tovarlar eksportidan olingan valyuta tushumi ustidan nazoratni kuchaytirish;

- davlat siyosatining barcha choralari qo'llab chet el investitsiyalari jalb etilishini va eksport salohiyatini rivojlantirishni rag'batlantirish;

Shu tariqa bozor iqtisodiyotiga o'tishining murakab sharoitlarida jahon bozoriga chiqishni erkinlashtirish va proteksionizm chora tadbirlari bilan birikkan izchil puxta o'ylangan tarkibiy va sanoat siyosatiga tayanadigan siyosat bo'ldi.

Respublika tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari ijobiy natijalar bera boshladi, masalan, 2003 yildagi tashqi savdo aylanmasi 6689,2 mln. AQSh dollarnin iashkil etib, 2002 yilga nisbatan 988,8 mln. dollarga yoki 17,3 foizga o'sishga erishildi. Buning asosiy sabablari eksport import bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarni ro'yxatga olish amaliyotining soddalashtirilishi;

-Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligida (TIAA) dastlabki ro'yxatga olinishning bekor qilinishi;

-Qo'shimcha qiymat solig'idan tashqari barcha turdagi soliq va yig'implarni to'lashdan ozod qilingan xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan raqobatbardosh tayyor ise mol tovarlarini ishlab chiqarishini rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha choralarni qo'llanilishi;

-Davlat Bojxona Qo'mitasi (DBQ), Markaziy Bank (MB), Davlat soliq qo'mitasi (DSQ) va Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligida (TIAA) o'rtasida tashqi savlo amaliyotlarini ayriboshlashning yagona elektron tizimining yaratilishi;

-Joriy Xalqaro amaliyotlar bo'yicha milliy valyutani (so'mni) erkin ayriboshlash, konvertatsiyanint kiritilishi;

-yuridik shaxslar, shuningdek, eksport import amaliyotlarini amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida ro'yxatga olingan jismoniy shaxslar uchun yog'och va yog'och mahsulotlarni import qilishda bojxona to'lov stavkasi nolga tenglashtirilishi bo'ldi.

Respublika tashqi savda aylanmasidagi tahlillar shuni ko'rsatadiki 1990 yilda eksport xajmi 442 mln. AQSh dollarni tashkil etib 2000 yil 6212,1 mln. dollarga o'sgan holda import xajmi 362.9 mln. AQSh dollarni tashkil etib, 2000 yil 2947,4 mln. dollarga o'sgan. Tashqi savda aylanmasi tarkibining o'zgarishidagi eksportning importga nisbatan deyarli ikki barobarga o'sishi xaqiqatda ham respublika tashqi iqtisodiy faoliyatinig samarali mexanizimini ifodalaydi.

O'zbekiston 2000 yildan import qilishga nisbatan sezilarli ravishda ko'proq eksport qilishni boshlagan. Tashqi savda aylanmasida eksportning salmog'i 55,7 foizni importning salmog'i esa 44,3 foizni tashkil qildi. eksport va import amaliyotlari o'rtasidagi farq 2000 yildagiga nisbatan kam bo'lgan va tashqi savda ayriboshlashning eksport salmogi 52,4 importning salmog'i esa 47,6 foizga teng bo'lgan.

Respublika tashqi savdo aylanmasi tarkibida eksportning o'sishi natijasida savdo balansining aktiv qismi 1990 yilda 442,7 mln. AQSh dollarni tashkil etib, 2000 yilda 3264,7 mln. dollarga o'sishiga erishildi. Shu o'rinda Respublika tashqi savdo aylanmasi ya'ni eksport va import hajmi hamda uning tarkibini o'zgarishi o'zgarish dinamikasini tahlil etadigan bo'lsak, bu borada sifat ko'rsatkichlariga erishildi. 1990 yilga nisbatan eksport xajmi 2000 yilda etti barobarga o'sdi. Uning tarkibida oziq — ovqat va energetika maxsulotlaridan tashqari tovarlarning barcha turlarida o'sish kuzatilgan (2.1.1—jadval).

Respublika tashqi savdo aylanmasida eksport va import xajmining geografik tarkibini o'rganish shuni ko'rsatadiki, mamlakat tashqi savdo aylanmasining deyarli 4G`3 qismi rivojlangan mamlakatlar xissasiga to'g'ri kelmoqda. 26,0 foizi esa MDH mamlakatlari hisobiga to'g'ri kelib u 1,6 foiz kamaygan holda qolgan 74,0 foizi xorijiy davlatlar hisobiga to'g'ri kelib, uzoq xorijiy mamlakatlar bilan eksport xajmi 1,6 foizga o'sgan. Import hajmida MDH mamlakatlarinig ulushi 38,3 foizni tashkil etib 1,4 foizga ortgan bo'lsa uzoq xorijiy mamlakatlar bilan ulushi 1,4 foizga kamaygan.

Respublika eksportining geografik tarkibida xorijiy mamlakatlar ulushi yuqori bo'lib o'sish tendentsiyasiga ega bo'lsa importning geografik tarkibida ham xorijiy mamlakatlar ulushi yuqori bo'lsada qayd etilgan yillarda kamayish tendentsiyasiga ega bo'lgan (2.1.2 — jadval). 2002-2003 yillarda umumiy salmog'i ayrim mamlakatlarda ko'paygan ayrimlarda kamayganini ko'rish mumkin.

**2.1.1-jadval O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo aylanmasida eksport import hajmi va uning tarkibini o'zgarish dinamikasi (1990-2000)**

| Ko'rsatkichlar                               | Umumiy eksport xajmidagi ulushi, foiz |      | Umumiy import xajmidagi ulushi, foiz |      |
|----------------------------------------------|---------------------------------------|------|--------------------------------------|------|
|                                              | 1900                                  | 2000 | 1990                                 | 2000 |
| Jami                                         | 100                                   | 100  | 100                                  | 100  |
| Shundan: Paxta tolasi                        | 22,4                                  | 9,8  |                                      | —    |
| Oziq —ovqat maxsulotlari                     | 3,5                                   | 2,7  | 12,5                                 | 9,9  |
| Plastmassa va undan tayyorlangan maxsulotlar | 3,0                                   | 3,1  | 15,1                                 | 12,8 |
| Energetika va yoqilg'i maxsulotlari          | 8,1                                   | 9,8  | 1,3                                  | 2,7  |
| Rangli va qora metallurgiya                  | 6,4                                   | 6,4  | 8,0                                  | 7,9  |
| Mashina va uskunalar                         | 3,9                                   | 5,9  | 41,4                                 | 44,4 |

|           |      |      |      |       |
|-----------|------|------|------|-------|
| Xizmatlar | 15,9 | 14,4 | 10,6 | 10,2  |
| Boshqalar | 36,8 | 37,9 | 11,1 | 12,1. |

### **O'zbekiston Respublikasi statistika vazirligi ma'lumotlari asosida tuzildi**

Respublika eksport hajmi tarkibida MDH mamlakatlaridan Rossiya, Ukraina, Tojikiston va Qozog'iston mamlakatlari yuqori ulushga ega bo'lsa, uzoq xorij mamlakatlaridan Buyuk Britaniya, eron, SHvetsariya, Turkiya mamlakatlari yuqori ulushga ega. Demak, respublikada chiqarilgan tovar va xizmatlar dunyoning rivojlangan mamlakatlari tomonidan harid qilinmoqda,

Import hajmi tarkibida esa MDH mamlakatlaridan Rossiya, Qozog'iston va Ukraina mamlakatlari yuqori ulushga ega bo'lsa, uzoq xorij mamlakatlaridan Germaniya, Koreya, AQSh, Xitoy va Turkiya kabi mamlakatlar ulushi yuqoridir. Umuman respublika tashqi iqtisodiy aloqalarini erkinlashtirish va tashqi iqtisodiy majmuining yanada takomillashtirish borasida quyidagi masalalarni hal etish maqsadga muvofiqdir:

- O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari manfaatlarini ham ichki ham tashqi bozorda himoya qilish;
- milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va uning jahon iqtisodiyoti tizimiga integratsiyalashuvini rag'batlantirishga qaratilgan zaruriy shart – sharoitlarni yaratish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatning davlat tomonidan tartibga solish tizimlarini yanada rivojlantirish;
- eksport salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirishni ta'minlash;

### **O'zbekiston Respublikasi eksport importning geografik tarkibi (foizda)**

#### **2.1.2.-jadval**

| Mamlakatlar      | Umumiy hajmdagi salmog'i |      |        |      |
|------------------|--------------------------|------|--------|------|
|                  | Eksport                  |      | Import |      |
|                  | 2002                     | 2003 | 20     | 2003 |
| Jami             | 100                      | 100  | 10     | 100  |
| MDH mamlakatlari | 27,6                     | 26,0 | 36,    | 38,3 |
| Qozog'iston      | 2,7                      | 2,7  | 6,7    | 6,6  |
| Rossiya          | 10,6                     | 12,3 | 22,    | 23,3 |

|                          |      |      |          |      |
|--------------------------|------|------|----------|------|
| Tojikiston               | 3,4  | 3,3  | 0,6      | 0,8  |
| Ukraina                  | 5,4  | 3,9  | 4,5      | 4,6  |
| Boshqa mamlakatlar       | 5,5  | 3,8  | 3,1      | 3,0  |
| Uzoq xorijiy mamlakatlar | 72,4 | 74,0 | 63,      | 61,7 |
| Afg'oniston              | 2,1  | 2,4  | —        | —    |
| Belgiya                  | 2,4  | 1,9  | 0,9      | 0,7  |
| Buyuk Britaniya          | 7,7  | 7,5  | 2,7      | 2,6  |
| Germaniya                | 1,4  | 1,2  | 7,8      | 9,8  |
| Xindiston                | 0,8  | 2,4  | 0,6      | 0,6  |
| Eron                     | 5,8  | 7,4  | 1,2      | 1,0  |
| Italiya                  | 1,7  | 1,6  | 2,7      | 1,7  |
| Xitoy                    | 0,6  | 1,4  | 4,2      | 5,5  |
| Koreya                   | 2,2  | 1,5  | 9,5      | 7,9  |
| Latviya                  | 2,6  | 2,3  | 1,3      | 0,7  |
| Gollandiya               | 1,5  | 0,4  | 0,9      | 1,0  |
| AQSh                     | 2,6  | 2,9  | 12,      | 7,7  |
| Turkiya                  | 3,4  | 3,5  | 3,2      | 4,8  |
| Frantsiya                | 1,2  | 0,6  | 2,1      | 1,6  |
| Shvetsariya              | 6,3  | 5,4  | 0,9      | 0,6  |
| Yaponiya                 | 0,4  | 0,4  | 0,7      | 2,0  |
| Boshqa mamlakatlar       | 29,7 | 31,2 | 12,<br>3 | 13,5 |

**Jadval O'zbekiston Respublikasi statistika vazirligi ma'lumotlari asosida tuzildi.**

- ishlab chiqaruvchilar va eksportyorlar faoliyatini har tamonlama qo'llab-quvvatlovchi tizimlarni yanada takomillashtirish;
- xorijiy mamlakatlar bilan zamonaviy texnologiyalarni standartlashtirish, metrologiya va sifatni sertifikatlash qilish sohasida hamkorlik qilish ko'lamini yanada kengaytirish;
- to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish va xalqaro standartlarga javob beradigan qamda jaxon bozorida raqobat bardosh bo'lgan maxsulotlarni ishlab chiqarish maqsadida mamlakatning turli qududlarida qo'shma korxonalar tashkil etishni ta'minlash;
- O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar va boshqa xalqaro huquq sub'ektlari bilan savdo — iqtisodiy va moliyaviy hamkorliklarini yanada kengaytirish;
- xalqaro transport kommunikatsiyalarini rivojlantirish orqali eksport tovarlarining transportda tashish harajatlarni kamaytirish va hokazolardir.

Fikrimizcha tashqi iqtisodiy aloqalarining geografik tarkibini takomil lashtirish va yanada rivojlantirishga to'sqinlik qilib kelayotgan bunday masalalarning o'z vaqtida bartaraf etilishi O'zbekistonning jaxon iqtisodiy hamjamiyatida samarali ishtirok etishi imkonini beradi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalari sifat jihatdan yangi bosqichga kirdi va tashqi siyosatdagi ustivor yo'nalish bo'lib qoldi. O'zbekiston suverinetetini jahondagi 180 dan ortiq davlatlar tan oldi va 100 ga yaqin mamlakatlar bilan

diplomatik munosabatlar o'rnatildi. 40 ga yaqin davlatlarda O'zbekiston elchixonalari ochildi. O'zbekiston mustaqil va teng huquqlilik asosida 100 dan ortiq mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirmoqda.

Mustaqillik yillarida Respublikada tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, Davlat bojxona qo'mitasi va boshqa institutsional tarkib tuzilmalari shakllandi. Jahon andozalariga mos keluvchi tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi me'yoriy –huquqiy asoslar yaratildi. Xorijiy investitsiyalarning mamlakatimiz hududida erkin faoliyat ko'rsatishini va ishonchli kafolatni ta'minlovchi qulay investitsion muhit yuzaga keldi. 2007 yilda mamlakatimizning tashqi savdo aylanmasi 14,2 mlrd. AQSh dollarga yetdi. O'tgan yillarda tashqi savdoda muhim o'zgarishlar yuz berdi va uning tarkibi o'zgardi.

O'zbekiston tashqi savdo aylanmasida 1990 yil MDH mamlakatlari ulushi 41% ni va xorijiy mamlakatlar ulushi 59% ni tashkil qilgan bo'lsa, 1995 yil mos ravishda 42,3 % va 47,7 % ni va 2007 yil MDH mamlakatlari ulushi 49,1 % ni va uzoq xorijiy mamlakat ulushi 50,9 % ni tashkil qildi.

Ayni vaqtda tovarlar (xizmatlar) eksporti va importi tarkibida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi va bu jarayon mamlakatimizda izchil amalga oshirilayotgan tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish siyosati bilan bog'liq.

Mamlakat eksporti tarkibida 1992-2007 yillarda muhim sifat o'zgarishlari yuz berdi. Jumladan, eksport tarkibida paxta tolasi 35 % ga, kimyo sanoati mahsulotlari, plastmassa va undan tayyorlangan buyumlar 4,0 % ga oshdi qora va rangli metallar 5,0 % , mashina va uskunalar 7,3 % ga, energetika va yoqilg'i mahsulotlari 3 barobar, oziq-ovqat mahsulotlari 0,2 % ga, xizmatlar deyarli 3 martaga o'sdi.

Mamlakat importida ham ijobiy o'zgarishlar yuz berdi. Import tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarini import qilish 36,5 %, qora va rangli metallar 0,4 % ga, energetika va yoqilg'i mahsulotlari 10 % ga va boshqalar 9 % ga qisqardi va kimyo sanoati mahsulotlari, plastmassa va undan tayyorlangan buyumlar 9,2 % i ga, mashina va uskunalar 41,4 % ga va xizmatlar 1,5 barobar o'sdi. Ko'rinib turibdiki, eksport tarkibida an'anaviy eksport-paxta tolasi qisqarib borishi, energetika va yoqilg'i mahsulotlari, to'qimachilik mahsulotlari, shuningdek, transport, turistik va boshqa turdagi xizmatlarning o'sish tendentsiyasi, importda esa oziq-ovqat mahsulotlari, yoqilg'i mahsulotlarining qisqarishi, mashina va uskunalar ulushining o'sishi mamlakatda amalga oshirilayotgan don va energetika mustaqilligi siyosati va sanoatdagi o'zgarishlarning natijasidir.

MDH mamlakatlaridan asosan qora va rangli metallar, energetika va yoqilg'i mahsulotlari, yog'och, qog'oz mahsulotlari, uzoq xorijiy mamlakatlardagi esa oziq-ovqat, kimyoviy mahsulotlar va plastmassa, mashina va uskunalar, to'qimachilik mahsulotlari olib kelindi. MDH mamlakatlariga asosan iste'mol tovarlari, paxta tolasi (Rossiya), energetika va yoqilg'i mahsulotlari (tabiiy gaz), kimyo sanoati mahsulotlari, mashina va uskunalar, oziq-ovqat mahsulotlari (meva, sabzavot va boshqalar) va xorij mamlakatlariga esa paxta tolasi, rangli va qimmatbaho metallar, kimyo sanoati mahsulotlari (umumiy eksport hajmida 74,0% gacha) eksport qilinadi.

Eksport bo'yicha O'zbekistonning asosiy savdo sheriklari: Rossiya, Buyuk Britaniya, eron, Shveytsariya, Ukraina, Turkiya, Tojikiston, AQSh, Qozog'iston, Hindiston, Afg'oniston va boshq. Import bo'yicha esa Rossiya, Germaniya, Koreya Respublikasi, AQSh, Xitoy, Turkiya va shu kabi mamlakatlardir.

Mustaqillik yillarida tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanishida xorijiy investitsiyalar ishtirokida qurilgan korxonalar ham sezilarli o'rin tutmoqda. O'zbekistondagi eng yirik xorijiy investorlar ishtirokidagi korxonalar Koreya Respublikasi, AQSh, Buyuk Britaniya, Turkiya, Shveytsariya, Germaniya, Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorlikda tashkil qilingan. Respublikadagi ja'mi 461 ta qo'shma korxonalardan 56 tasi Rossiya, 50 tasi Turkiya, 49 tasi AQSh, 40 tasi Buyuk Britaniya, 28 tasi Germaniya, 23 tasi Koreya Respublikasi, 16 tasi Shveytsariya, 12 tasi Xitoy, 10 tasi Italiya kabi mamlakatlar bilan barpo qilingan.

2003 yilda xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarda chiqarilgan mahsulot, ish va xizmatlarning yalpi mahsulotdagi ulushi 14,9 %, respublika umumiy eksport hajmidagi hisssasi 15,2 % va umumiy importdagi hisssasi 29% ni tashkil qildi.

Yaqin istiqboldagi turizmning rivojlanishi xorijlik turistlarning mamlaktning betakror, go'zal tabiati va tarixiy obidalariga (Samarqand, Buxoro, Qo'qon va boshqa shaharlar) bo'lgan qiziqishlari turizm industriyasini samarali tashkil qilish bilan bog'liqdir. Chunki turizm mamlakat xazinasini uchun ishonchli valyuta tushumlari beradigan va aholi bandligini ta'minlaydigan majmua sifatida tashqi aloqalarning yanada rivojlanish manbaidir.

Umuman, mustaqillik yillarida O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalaridagi asosiy o'zgarishlar:

- mamlakat milliy iqtisodiyotining jahon xo'jaligiga integratsiyalashuv jarayonining kuchayishi; MDH mamlakatlari bozorlaridan uzoq xorijiy mamlakatlar, birinchi navbatda, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarga yo'nalishning rivojlanishi;
- mamlakat importi tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari (birinchi navbatda bug'doy) va yoqilg'i –energetika resurslarining qisqarishi, tarixan qisqa muddatda O'zbekistonning don va energetika mustaqilligiga erishishi;
- import umumiy hajmida mashina va jihozlar hissasining ortishi bilan karakterlanadi.

Bu O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyat bilan amalga oshirilayotganligi, samarali tarkibiy siyosat, tashqi savdo aylanmasining diversifikatsiyasiga, ya'ni eksportdagi xom ashyo yo'nalishning qisqarib, milliy industriyaning rivojlanib borayotganligining yaqqol natajasidir.

## **2.2. Rossiya Federatsiyasi tashqi iqtisodiy aloqalarini tarkibi va iqtisodiy geografik xususiyatlari.**

Rossiya hududdining kengligi jihatidan jahondagi eng katta davlat, u Evropa va Osiyo qit'alarida joylashgan.

Rossiyaning geografik joylashishi ham, tabiiy resurslari ham iqtisodiy rivojlanishi uchun juda qulay. Rossiya juda katta o'rmon boyligiga, ko'plab mineral resurslarga ega. Hozirgi paytda Rossiya SHarqiy Evropani neft bilan ta'minlaydigan asosiy manbadir.

Rossiyada sanoat yuksak darajada rivojlangan. Tabiiy sharoiti qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun, ayniqsa, shimoliy qismlarida noqulay. Kartoshka etishtirish bo'yicha jahonda etakchi hisoblanadi.

Rossiya ko'p millatli davlat, aholisining asosiy qismini ruslar tashkil qiladi.

XXI asr bo'sag'asida jahon xo'jaligi strukturasi va sub'ektlari tahlili asosida Rossiya Federatsiyasining jahon xo'jaligida tutgan o'rni va rivojlanish istiqbolini bilish maqsadga muvofiqdir.

Rossiya Federatsiyasining iqtisodiy va geografik jihati shundaki, hududining 2G`3 qismi chekka SHimol rayonlari va iqlimi sovuq bo'lgan og'ir sharoitli zonalarga to'g'ri keladi. SHuning uchun ham Rossiya qishloq xo'jaligining faqat 35 % ida g'alla va boshqa madaniy ekinlardan hosil olinadi, xolos. Rossiyaning shimoliy tekisliklarida aholi yashashi uchun juda katta energetika harajati talab qilinadi. Rossiya juda boy tabiiy resurslarga ega bo'lishiga qaramasdan hozirgi kunda nodir qimmatbaho rangli er osti metallari, ko'plab madaniy texnik ekinlar xomashyosi va tayyor mahsulotlari bilan, iste'mol tovarlari va oziq—ovqat mahsulotlari bilan etarli ravishda ta'minlanmaydi.

Rossiya Federatsiyasi taxminan Sobiq ittifoq tashqi iqtisodiy aloqalarining taxminan 70 foizi merosxo'ri bo'lib qolgandi. Lekin, shuni qayd qilmoq kerakki, Rossiya Federatsiyasi Sobiq ittifoq tarkibida bo'lgan 1986-1991 yillardayoq uning tashqi savdo aylanmasi deyarli ikki barobarga qisqargan, bunday tendentsiya keyingi yillarda ham saqlanib qolgan edi. Uzoq xorij mamlakatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqa 1993 yildagina nisbatan o'zgardi. Chunonchi, bu jarayondagi ko'rsatkich 1993 yili 71.1, 1994 yili 76.2 mlrd. dollarni tashkil etdi.

Mamlakatning uzoq xorij mamlakatlariga eksportida hamon xomashyo asosiy o'rinni egallab qolmoqda. Bu sohada, o'zi qimmatini bilan ayniqsa, yoqilg'i-energetika tovarlarning ahamiyati ortmoqda.

Rossiyaning uzoq xorij mamlakatlari bilan olib borayotgan umumiy eksport tovarlar hajmi 1994 yili 46.0 % ni tashkil etdi. (bu ko'rsatkich 1992 yili 54.3, 1993 yili esa 45.0 edi). 1994 yili chetga chiqarilgan qora va rangli metallar qimmatbaho toshlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar hissasi 29.9 % ga etdi. (1992 yili 16.3, 1993 yili esa 23.2). Hozirgi kunda Rossiyaning uzoq xorij mamlakatlariga eksportida stanoklar va transport mahsulotlari hissasi kamayib bormoqda. Chunonchi, bu boradagi ko'rsatkich 1992 yili 9,3, 1993 yili 6,6 va 1994 yili esa 5,1 edi.

Keyingi yillarda Rossiyaning muhim xalqaro mintaqaviy bozorlar va tovarlar bozorlaridagi ishtiroki keskin qisqarmoqda, shuningdek, sobiq UIEK (SEV) va MDHda shuningdek, rivojlanayotgan barcha mamlakatlarning bozorlarida ta'sirini tobora yo'qotmoqda. Tovar mahsulotlari ishlab chiqaruvchi chet ellik raqobatchilarini o'z ichki bozorlaridan siqib chiqarmoqdalar.

Rossiyada kuchli ilmiy-texnik potentsial, juda katta, ammo hali ham foydalanilmayotgan intellektual resurslarga boy. Mamlakat aholisining asosiy ismi ma'lumotli va yuqori madaniy darajali. SHunga qaramasdan, Rossiyaning xo'jalik mexanizmini butunlay bozor iqtisodiyoti asosida qayta ko'rish zarurdir. Buning uchun esa bozorga o'tishning muhim omillarini aniqlab olish va yangi sharoitga moslashtirish maqsadga muvofiqdir. Rossiyada bozor infratuzilmasining takomillashgan tomonlari-bank tizimi, fond bozorlari, sug'urta institutlari va boshqalar tashkil topmoqda. Ammo Rossiyaning iqtisodiy hayotida, tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish sohalarida nihoyatda murakkab muammolar haligacha hal qilinmayapti.

Rossiyada bozor tamoyillarining hayotga tadbiiq etilishi bilan mamlakat xorijiy sheriklar uchun tobora ochiqroq bo'lib bormoqda. Tashqi savdoni samarali tashkil etish, uning tarkibi va dinamikasi, ko'p jihatdan milliy iqtisodiyotning kelgusida holati, muammo va rivojlanish istiqbolini belgilaydi. Rossiya iqtisodiyotida tashqi savdo roli ortib borayotganligiga qaramay, dunyo eksport va importning 1,2-1,5 % i tashkil qilmoqda, xolos. Tashqi savdo ulushi yalpi ichki mahsulot hajmida 25% ga etmaydi va iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardan sezilarli darajada past.

Rossiya tashqi savdosida an'anaviy MDH mamlakatlariga "bog'liqlik" saqlanib qolgan bo'lsa-da, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar bilan aloqalari tez rivojlanib bormoqda. 1994 yil Rossiya va Evropa Ittifoqi o'rtasida savdo-sotiq shartnomasi imzolandi. Bugungi kunda Rossiya eksportining 40% i aynan Evropa Ittifoqi bilan savdo aloqalariga to'g'ri kelmoqda. Asosiy savdo sheriklari Germaniya, Italiya, Yaponiya va Buyuk Britaniyadir. Tashqi savdoda tovar tarkibi o'zgardi va dunyo bozoriga qazib chiqarilayotgan neftning 40 % tabiiy gazning 30 % dan ortig'i, 30 % neft mahsulotlari, 35 % dan ortiq mineral o'g'itlar, 25 % yog'och, 60 % dan ortiq faner chiqarilmoqda. YOqilg'i-energetika resurslari Rossiya eksportining 45,9 % tashkil qiladi. SHuningdek, xom ashyo va yarim fabrikatlar, metall, temir rudasi, po'lat, alyuminiy va boshqa mahsulotlar chiqarmoqda. Ammo mashinasozlik mahsulotlari mamlakat eksportining 9 % ini tashkil qiladi, xolos. Keyingi yillarda eksportga harbiy sanoat majmuasi mahsulotlari chiqarish kengayib bormoqda.

Rossiya importida mashinasozlik jihozlari va transport vositalari (30 % atrofida) etakchilik qiladi. Ayniqsa, Rossiya ichki bozorini import televizor, xolodil'nik, videomagnitafon, shaxsiy komp'yuter, nusxa ko'chiruvchi va ko'paytiruvchi apparatlar va boshqa murakkab maishiy texnika egallab oldi. Ikkinchi o'rinda oziq-ovqat mahsulotlari (35% dan iborat bo'lib, go'shtga bo'lgan ehtiyojning 60% , sariyog'ga bo'lgan ehtiyojning 51 % va o'simlik yog'iga bo'lgan ehtiyojning 30 % ni qondirmoqda) turadi. Ochiq iqtisodiy siyosat ilmiy-texnik hamkorlikning kengayishiga olib kelmoqda. Ochiq iqtisodiy siyosat ilmiy- texnik hamkorlikning kengayishiga olib kelmoqda. Germaniya, AQSH, Finlyandiya, Avstriya, SHarqiy Evropa mamlakatlari kompaniyalari bilan birgalikda bu yo'nalishda

tadbirkorlik ishlari kengaymoqda. Ayni vaqtda Rossiya kapitali ishtirokida xorijiy sheriklar bilan birgalikda tadbirkorlik ishlari faollashmoqda. Xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy hamkorlikning istiqbolli shakli-erkin iqtisodiy mintaqalar tashkillanmoqda. (Kaliningrad viloyatida).

Rossiya O'zbekiston munosabatlari juda uzoq tarixga ega. XX asrning 90-yillaridan ikki mamlakat o'rtasida teng huquqli aloqalar o'rnatildi. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning 1998, 2001, 2004 yilda Rossiyaga va Rossiya Prezidenti V.Putinning 2000 va 2003 yillarda, amaldagi Prezident D.Medvedovning 2009 yilda O'zbekistonga tashrifi vaqtida iqtisodiy, ilmiy, madaniy hamkorlikning huquqiy asoslari yaratildi va munosabatlar jadal rivojlanib bormoqda. 2006 yildan boshlab O'zbekiston Evrosiyo ittifoqiga kirishi bilan Rossiya-O'zbekiston o'rtasida iqtisodiy aloqalarining mutlaqo sifat jihatdan yangi bosqichi boshlandi.

2006 yilda Rossiya-O'zbekiston o'rtasida tovar ayriboshlash 1828,1 mln. dollarga etdi. O'zbekiston Rossiyaga paxta tolasi, avtomobil, meva-sabzavot mahsulotlari qurilish materiallari, uran eksport qilsa, Rossiyadan mashinasozlik jihozlari, elektrotexnika va elektronika mahsulotlari, transport vositalari, qora metall, farmatsevtika hamda boshqa mahsulotlarni import qiladi. Ilmiy-texnik va madaniy aloqalar rivojlanib bormoqda. Rossiya bilan hamkorlikda O'zbekistonda 520 dan ortiq qo'shma korxonalar tashkil etilgan. Rossiyaning 40 dan ortiq kompaniyasi O'zbekiston hududida o'z vakolatxonalariga ega.

### **2.3. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo dinamikasi va investitsiya siyosatining mohiyati**

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti mustaqillikni qo'lga kiritishimizga qadar, asosan sobiq Ittifoq respublikalarini xomashyo resurslari bilan ta'minlashga yo'naltirilgan edi. Iste'mol mahsulotlarining asosiy qismini respublikamizda ishlab chiqarish imkoniyati mavjudligiga qaramasdan, ular chetdan keltirilar edi.


1990 yilda O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi 805,6 mil-lion dollarni, jumladan, eksport - 442,7 million dollarni, import - 362,9 million dollarni tashkil etgan. Ijobiy sal'do esa 80 million dollar atrofida bo'lgan edi.

O'tgan 20 yil mobaynida tashqi savdo aylanmasi 27,1 barobar o'sdi, shu jumladan, eksport hajmi - 29,5 barobar, import 24,2 barobar oshdi. Bu jarayonda tashqi savdoning ijobiy sal'dosi 53 barobar ortib, oltin-valyuta zaxiralarining yuqori darajada o'sishi va milliy valyuta barqarorligini ta'minladi.

Eksport va import tarkibi tubdan o'zgardi (2.3.1-rasm) O'zbekiston mustaqillikkacha bo'lgan davrdagi chetga xomashyo chiqaradigan va tayyor mahsulotlar, asosan iste'mol tovarlarini olib kiradigan mamlakatdan bugungi kunda tobora qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan tayyor mahsulotlarni eksport qiladigan va ko'proq ishlab chiqarishni texnik hamda texnologik modernizatsiya qilish uchun mo'ljallangan yuqori texnologiyalar asosidagi uskunalarni import qiladigan mamlakatga aylanib bormokda.

#### **2.3.1.-rasm**





Ushbu 1-rasmda mamlakat eksportining 1990-2010- yillar ya'ni 20 yil davomidagi o'zgarishlari o'z ifodasini topgan. Masalan 1990 yil eksportda 60 foiz paxta tolasi bo'lsa, 2010 yil 11,3 foizni tashkil etdi yoki energetika va neft mahsulotlari 17 foizdan 24,8 foizga ortganini ko'rish mumkin.

Eksportning tovar tarkibini diversifikatsiya qilish natijasida mamlakatimiz paxta yakkahokimligi oqibati bo'lgan paxta tolasi eksportiga qaramlikdan xalos bo'ldi. Uning (2.3.3-jadval) eksportdagi

### O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo tarkibi

#### 2.3.3-jadval

|                                               | 1990 yil     | 2000 yil      | 2010 yil       |
|-----------------------------------------------|--------------|---------------|----------------|
| <b>Tashqi savdo aylanmasi, million dollar</b> | <b>805,6</b> | <b>6212,1</b> | <b>21842,2</b> |
| Eksport, million dollar                       | 442,7        | 3264,7        | 13044,5        |

|                                                     |            |            |            |
|-----------------------------------------------------|------------|------------|------------|
| Import, million dollar                              | 362,9      | 2947,4     | 8799,7     |
| Sal'do (Q,-), million dollar                        | 79,8       | 317,3      | 4244,8     |
| <b>Eksport (foiz)</b>                               | <b>100</b> | <b>100</b> | <b>100</b> |
| Paxta tolasi                                        | 59,7       | 27,5       | 11,3       |
| Oziq-ovqat mahsulotlari                             | 3,9        | 5,4        | 9,7        |
| Kimyoviy mahsulot va undan tayyorlangan mahsulotlar | 2,3        | 2,9        | 5,1        |
| Energiya va neft' mahsulotlari                      | 17,1       | 10,3       | 24,8       |
| Qora va rangli metallar                             | 4,6        | 6,6        | 6,8        |
| Mashina va uskunalar                                | 1,7        | 3,4        | 5,5        |
| Xizmatlar                                           | 1,3        | 13,7       | 9,1        |
| Boshqalar                                           | 9,4        | 30,2       | 27,7       |
| <b>Import (foiz)</b>                                | <b>100</b> | <b>100</b> | <b>100</b> |
| Mashina va uskunalar                                | 12,1       | 35,4       | 44,1       |
| Kimyoviy mahsulot va undan tayyorlangan mahsulotlar | 9,7        | 13,6       | 14,3       |
| Energiya va neft' mahsulotlari                      | 3,1        | 3,8        | 6,0        |
| Qora va rangli metallar                             | 10,2       | 8,6        | 8,4        |
| Oziq-ovqat mahsulotlari                             | 48,9       | 12,3       | 10,9       |
| Xizmatlar                                           | 1,5        | 8,5        | 4,7        |
| Boshqalar                                           | 14,5       | 17,8       | 11,6       |

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (1990 yil -sobiq respublikalar bilan savdo hisobga olingan)

Ushbu jadvalda mamlakatimiz tashqi savdo tarkibi va tashqi savdo aylanmasi ko'rsatkichlari 1990-2000-2010-yillar davomidagi jahmi tahlil etilgan. eksport, importi o'sish sur'atlari va sal'josi berilgan bo'lib tarmoqlar bo'yicha tasvirlangan.

ulushi kamayib, 1990 yildagi 59,7 foizdan 2010 yilda 11,3 foizga tushdi. 1990 yilda eksportning umumiy hajmida xomashyo hisoblanmaydigan tovarlar ulushi 30 foizdan kamrok bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda bu ko'rsatkich 70 foizdan ziyoddir.

#### **Tashqi savdo aylanmasining geografik tarkibi (foiz)** **2.3.4--jadval**

|                        | 1990<br>yil | 2010<br>yil |
|------------------------|-------------|-------------|
| Tashqi savdo aylanmasi | 100         | 100         |

|                         |      |      |
|-------------------------|------|------|
| Uzoq xorij mamlakatlari | 39,9 | 56,9 |
| MDH mamlakatlari        | 60,1 | 43,1 |
| Eksport                 | 100  | 100  |
| Uzoq xorij mamlakatlari | 37,7 | 54,8 |
| MDH mamlakatlari        | 62,3 | 45,2 |
| Import                  | 100  | 100  |
| Uzoq xorij mamlakatlari | 42,6 | 59,9 |
| MDH mamlakatlari        | 57,4 | 40,1 |

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Tashqi savdo aylanmasida geografik tarkibi 4-jadvalda tahlillanib 1990 yil va 2010 yillar ko'rsatkichlarida tashqi savdo geografiyasining uzoq xorij mamlakatlari va MDH mamlakatlari bilan bo'lgan ko'rsatkichlari import va eksportdagi holati berilgan. Unda uzoq sharq mamlakatlariga eksport va import ko'rsatkichini MDH ga nisbatan ortganini ko'rish mumkin.

Yurtimizda keyingi 10 yil mobaynida engil avtomobillar eksporti 7,6 barobar, paxta kalavasi - 4,7 barobar, trikotaj matolar - 156 barobar, mineral o'g'itlar - 11,7 barobar, neft mahsulotlari - 6,5 barobar, tsement - 6,3 barobar, sabzavot va mevalar eksporti 14,1 barobar o'sdi. Kichik biznes korxonalarining eksport hajmi 10 barobardan ko'proq oshdi.

Mamlakatimiz iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchilarining tezkor rivojlanishi natijasida import tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ulushi 4,5 barobar qisqardi. Masalan, oxirgi 15 yilda bug'doy importi nafaqat to'xtatildi, balki O'zbekiston o'z bug'doyi va g'allasidan tayyorlangan unni eksport qila boshladi. Go'sht mahsulotlarini import qilish 5 barobar, sut mahsulotlari 2,6 barobar, qayta ishlangan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 3,5 marta, alkogolli va alkogolsiz ichimliklar 16 va boshka oziq-ovqat mahsulotlari 7 barobar-dan ko'proq, gilam va erga to'shaladigan qoplamalar 10 marta, trikotaj matolar 10 barobar, to'qimachilik-trikotaj liboslari 11 marta, poyafzallar importi 11 barobar kamaydi.

Mashina va uskunalarning import tarkibidagi ulushi o'sib, 1990 yildagi 12,1 foizdan 2000 yilda 35,4 foizga, 2010 yil-da esa 44,1 foizga etdi.

Tashqi savdo geografiyasi ham diversifikatsiya qilindi. Tashqi savdoda sobiq Ittifoq respublikalarining emas, balki uzoq xorij mamlakatlarining ulushi orta boshladi. (2.3.4.-jadval)

Makroiqtisodiy barqarorlikka erishilishi, iqtisodiy va institutsional islohotlarning chuqurlashtirilishi hamda mamlakatimizda investitsiya muhitining yaxshilanishi investitsiya faolligining sezilarli darajada kuchayishiga va iqtisodiyotimizga yo'naltirilayotgan kapital qo'yimlar haj-mining 2010 yilda 1990 yildagiga nisbatan 11,6 barobar o'sishi uchun imkon berdi.

#### Kapital qo'yimlar dinamikasi va tarkibi

##### 2.3.5.-jadval

|  | Kapital qo'yimlar<br>(million dollar) |          |          | Kapital qo'yimlar tarkibi<br>(foiz) |          |          |
|--|---------------------------------------|----------|----------|-------------------------------------|----------|----------|
|  | 1990 yil                              | 2000 yil | 2010 yil | 1990 yil                            | 2000 yil | 2010 yil |

|                                                                                                |       |        |        |      |      |      |
|------------------------------------------------------------------------------------------------|-------|--------|--------|------|------|------|
| Kapital qo'yilmalar                                                                            | 833,8 | 3142,5 | 9712,7 | 100  | 100  | 100  |
| SHu jumladan                                                                                   |       |        |        |      |      |      |
| Davlat byudjeti, byudjetdan tashqari fondlar mablag'lari va boshqa markazlashtirilgan manbalar | 386,1 | 958,1  | 1266,6 | 46,3 | 30,5 | 13   |
| Markazlashmaga investitsiyalar:                                                                | 447,7 | 1456,9 | 5621,6 | 53,7 | 46,3 | 57,9 |
| Korxonalar mablag'lari                                                                         | 342,7 | 852,9  | 3124,4 | 41,1 | 27,1 | 32,2 |
| Aholi mablag'lari                                                                              | 105,0 | 376,6  | 1554,2 | 12,6 | 12,0 | 16   |
| Bank kreditlari va boshqa kredit mablag'lari                                                   | -     | 227,4  | 943,0  | -    | 7,2  | 9,7  |
| Xorijiy investitsiyalar va kreditlar                                                           | -     | 727,5  | 2824,5 | -    | 23,2 | 29,1 |
| shu jumladan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar                                       | -     | 105,2  | 2454,7 | -    | 3,4  | 25,3 |

**Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

Ayniqsa, moliyalashtirish manbalari bo'yicha investitsiya-lar tarkibida tub o'zgarishlar ro'y bermokda. Iqtisodiyotimizdagi ancha yuqori o'sish sur'atlari hisobidan markazlashmagan manbalar, birinchi navbatda xususiy va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ulushi ortib bormokda.

Agar 1990 yilda mamlakatimizning investitsiya portfelida xorijiy investitsiyalar deyarli mavjud bo'lmagan bo'lsa, 2000 yilda investitsiya va kreditlarning ulushi 23,2 foizni, jumladan, hukumat kafolati bilan jalb etilgan xorijiy investitsiya va kreditlar 19,8 foizni, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar esa 3,4 foizni tashkil qildi.

Xorijiy investorlar uchun yaratilgan qulay biznes muhiti, keng huquqiy kafolat va imtiyozlar tizimi, xorijiy inves-titsiyalar ishtirokidagi korxonalarni rag'batlantirishga qa-ratilgan butun bir chora-tadbirlar majmuasi mamlakati-miz iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimini tubdan ko'paytirish imkonini berdi. Natijada 2010 yilda xorijiy investitsiyalarning jami kapital qo'yilmalar tarkibidagi ulushi 29,1 foizni, jumladan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 25,3 foizni va hukumat kafolati ostidagi investitsiyalar 3,8 foizni tashkil etdi.

Agar 1990 yilda iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalarning 46 foizdan ortig'i davlat byudjeti, byudjetdan tashqari fondlar va boshqa markazlashgan manbalar mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, 2010 yilda markazlashgan moliyalashtirish manbalarining jami kapital qo'yilmalar hajmidagi ulushi 13 foizga tushdi. Bu jarayonda davlat byudjeti va boshqa markazlashgan manbalar hisobidan yo'naltirilgan umumiy investitsiyalar hajmi 3,3 barobardan ziyod ortdi.

1990-2010 yillarda, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasidagi aniq maqsadga yo'naltirilgan siyosat natijasi sifatida ishlab chiqarishga

jalb qilingan investitsiyalarning ulushi o'sib, umumiy kapital qo'yilmalar hajmidagi 58,3 foizdan 73,5 foizga etdi. (2.3.6.-jadval) .

**Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha kapital qo'yilmalar tarkibi  
(foiz hisobida) 2.3.6-jadval**

|                                         | 1990 yil   | 2000 yil   | 2010 yil   |
|-----------------------------------------|------------|------------|------------|
| <b>Jami</b>                             | <b>100</b> | <b>100</b> | <b>100</b> |
| Ishlab chiqarish tarmoqlari<br>bo'yicha | 58,3       | 57,5       | 73,5       |
| Eqilg'i-energetika                      | 5,2        | 7,6        | 11,8       |
| Metallurgiya                            | 0,1        | 2,7        | 5,5        |
| Kimyo va yoqilg'i-kimyo                 | 1,4        | 7,9        | 1,2        |
| Mashinasozlik                           | 3,6        | 4,1        | 3,4        |
| Engil sanoat                            | 2,5        | 2,4        | 2,5        |
| Oziq-ovqat sanoati                      | 2,3        | 2,5        | 1,7        |
| Qurilish materiallari                   | 1,7        | 0,3        | 2,5        |
| Qishloq xo'jaligi                       | 26,7       | 5,7        | 3,5        |
| Transport va aloqa                      | 5,4        | 16,8       | 29,9       |
| boshqa sohalar                          | 9,4        | 7,5        | 11,5       |
| Noishlab chiqarish tarmoqlari bo'yicha  | 41,7       | 42,5       | 26,5       |

**Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

Faol investitsiya siyosati iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirishning eng samarali vositasi hisoblanadi. O'zbekistonning investitsiya strategiyasida yangi va yuksak texnologiyalarga asoslangan, ilg'or texnologiyalar bilan jihozlangan va xomashyo resurslarimizni chuqur qayta ishlashni

ta'minlaydigan, mamlakatimizning eksport salohiyatini oshirish hamda yangi ish o'rinlari yaratishga yo'naltirilgan investitsiya loyihalariga ustuvor ahamiyat berilmokda.

1990-2010 yillar davomida investitsiyalar tarkibida yoqilg'i-energetika sohasini (5,2 foizdan 11,8 foizga), transport va aloqa sohasini (5,4 foizdan 29,9 foizga) hamda metallurgiya sohasini (0,1 foizdan 5,5 foizga) rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar ulushi ortdi. (2.3.6.-jadval). Yangi ishlab chiqarish ob'ektlarini tashkil etish hamda mavjud ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish uchun mashinasozlik, metallurgiya, kimyo va yoqilg'i-kimyo, engil va oziq-ovqat sanoati sohaslariga yirik kapital qo'yilmalar yo'naltirildi, bu esa iqtisodiyotga jalb qilingan kapital qo'yilmalar tarkibida ushbu tarmoqlar ulushining sezilarli darajada oshishiga olib keldi.

Yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan yuksak texnologiyalar asosidagi mahsulotlar ishlab chiqarishga qaratilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda jahondagi eng yirik va mashhur AQShning «Jeneral Motors», «Teksako», Germaniyaning «MAN», «Daymleer Bents», «Klaas», Buyuk Britaniyaning «BAT», Ispaniyaning «Maksam», Yaponiyaning «Isuzu», «Ito-chu», Malayziyaning «Petronas», Koreyaning «Korean eyr», «SSHS», «SH», Xitoyning «SKRS», Rossiyaning «Lukoil», «Gazprom» kabi kompaniyalari, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki singari yirik xalqaro moliya tashkilotlari, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy va bir qator arab davlatlarining investitsiya banklari mamlakatimizning asosiy hamkorlari bo'lmoqda.

Investitsiya va sanoat sohasidagi faol siyosat natijasi sifatida mustaqillik yillarida yurtimizda engil va yuk avtomobillari, avtobuslar ishlab chiqaradigan yangi avtomobil zavodlari tashkil etildi. Jahondagi etakchi xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, SHo'rtan gaz-kimyo majmuasi, Qo'ng'iro't soda zavodi, o'nlab to'qimachilik majmualari barpo etildi.

Iqtisodiyotning etakchi, avvalambor bazaviy tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash bo'yicha loyihalarni va shuningdek, samarali tarkibiy o'zgarishlar va investitsiya siyosatini amalga oshirishda O'zbekiston Res-publikasi Prezidenti tashabbusi bilan 2006 yilda tashkil etilgan nizom fondi, bugungi kunda qariyb 7 milliard dollardan iborat bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi muhim o'rin egallamoqda.

Jamg'armaning eng asosiy vazifalaridan biri - iqtisodiyotning etakchi tarmoqlari rivoji, birinchi navbatda, ishlab chiqarish infratuzilmasining shakllanishi bilan bog'liq ustuvor vazifalarni amalga oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan strategik investitsiya loyihalarini moliyalashtirishdan iborat.

Hozirgi paytda Jamg'armaning investitsiya portfelida umumiy qiymati 18,5 milliard dollardan ortiq 55 investitsiya loyihasi mavjud. Shuning 4,3 milliard dollari Jamg'arma mablag'lari hisobidan birgalikda moliyalashtiriladi.

Jamg'arma faoliyat yuritayotgan davr mobaynida umumiy qiymati 1,7 milliard dollarni tashkil etadigan 16 ta investitsiya loyihasi amalga oshirildi. Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi qurilishi, Xonjiza polimetall konini o'zlashtirish loyihasi, Qamchiq dovoni orqali «Ohangaron-Pungan» magistral gaz tarmogining qurilishi, «Farg'onaazot» va «Maksam-Chirchiq» ochiq aktsiyadorlik jamiyatlarida yi-rik ammiak agregatlarining rekonstruktsiya va modernizatsiya qilinishi, 500 kVli «G'uzor» kichik stantsiyasi va «Surxon» kichik stantsiyasi yuqori vol'tli liniyasi qurilishi, Pomuq va Dengizko'l konlarida siqish kompressor stantsiyalarining barpo etilishi, Qo'ng'iro't kompressor stantsiyasidagi gaz namini qochirish qurilmasi, Qarshi kaskadi nasos stantsiyalarining rekonstruktsiya qilinishi, «O'zbekiston havo yo'llari» milliy aviakompaniyasining havo flotini yangilash loyihalarini, 400 ta «Mersedes-Bents» rusumli yo'lovchi tashish avtobuslarini harid qilish loyihalarini shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, umumiy qiymati 5,7 milliard dollarga teng bo'lgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish arafasida turibdi. Ularning sirasiga SHo'rtan gaz-kimyo majmuasida tozalangan metanni qayta ishlash bazasida suyultirilgan sintetik yoqilg'i ishlab chiqarish zavodini barpo etish, Yangi «Angren» ko'mir konini modernizatsiya qilish orqali Angren issiqlik elektr stantsiyasining 1-5-sonli energiya bloklarini yil bo'yi ko'mir asosida ishlash tizimiga o'tkazish, Navoiy va Toshkent issiqlik elektr stantsiyalarida bug'-gaz

moslamalarini qurish, Toshkent - Samarqand temir yo'l yo'nalishida foydalanish uchun «Tal'go - 250» yuqori tezyurar elektropoezdlarini harid qilish, Olmaliq tog'-metallurgiya kombinatini kompleks modernizatsiya qilish kabi loyihalar kiradi.

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hal etadigan yana bir muhim vazifa xorijiy investorlar, moliya institutlari va sheriklarni investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish va amalga oshirish maqsadida mamlakatimizga keng jalb etish hisoblanadi. Jamg'armaning qo'shma loyihalarda ishtirok etishi Osiyo taraqqiyot banki, Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi, Islom taraqqiyot banki, Xitoy . eksport-import banki, Xitoy Davlat taraqqiyot banki, Koreya taraqqiyot banki, boshqa xorijiy moliya institutlari, bank va kompaniyalarning mablag'lari hisobidan 3,2 milliard dollardan ziyod chet el investitsiyasi va kreditlarini jalb etish imkonini berdi. Xulosa shuki O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalari va insg`vestitsiyalarini jalb etish tobora kengayib bormoqda.

#### **2.4. Rossiya O'zbekiston iqtisodiy munosabatlarining tarkibiy shakllari geografik xususiyatlari va asosiy yo'nalishlari.**

Rossiya O'zbekiston Respublikalarining iqtisodiy munosabatlari mamlaktimiz mustaqilligi davrida o'ziga xos bo'lgan alohida yo'nalishni shakllantirdi. O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi munosabatlar mamlakatimiz tashqi siyosatida alohida o'rin tutadi. Mamlakatlarimiz o'rtasida 2004 yili Strategik sheriklik to'g'risidagi shartnoma, 2005 yilda hamkorlikni oliy bosqichga olib chiqishga xizmat qiladigan Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnoma imzolangan.

O'zbekiston va Rossiya iqtisodiyotning qariyb barcha sohalarida yaqindan hamkorlik qiladi. Tovar ayirboshlash hajmi muttasil oshib borayotgani (2007 yilda bu boradagi ko'rsatkich 48 foiz o'sib, 4,2 milliard AQSH dollarini tashkil etdi), izchil ravishda biznes forumlar, ko'rgazmalar, hukumatlararo komissiya majlislari tashkil etilayotgani buning yorqin tasdig'idir.

Ikki tomonlama munosabatlar barcha sohalarida jadal rivojlanib bormoqda. Rossiya O'zbekistonning yetakchi iqtisodiy sheriklaridandir. O'zaro savdo hajmi yildan-yilga oshib, eksport va importning tarkibi kengaymoqda. O'zbekiston tashqi savdosining qariyb chorak qismi Rossiya hissasiga to'g'ri keladi. 2005 yildan o'zaro tovar ayirboshlash hajmi yiliga 1 milliard AQSh dollariga ko'paymoqda. Ilgari ijobiy saldo Rossiya tomonida bo'lgan esa, 2005 yildan O'zbekistonga o'tgani va o'rtacha 800 million AQSh dollarini tashkil etayotgani diqqatga sazovordir. Albatta, bu ko'rsatkichga faqat tabiiy gaz yoki paxta tolasi singari xomashyo savdosi evaziga erishilgani yo'q. So'nggi yillarda yengil avtomobillar (1,5-2 barobar), poliz mahsulotlari va meva-cheva (5), polietilen (2), tayyor to'qimachilik mahsulotlari (1,4-1,5), transformator va transformator podstantsiyalari (2), past voltli qurilmalar (1,5) kabi mahsulotlar eksporti, shuningdek, quvurlar (1,5), havo transporti (1,7), sayyohlik (1,4) bo'yicha va boshqa turdagi xizmatlar hajmi ortyapti.

Bundan tashqari, O'zbekiston Rossiyaga mashina va uskunalar, oziq-ovqat mahsulotlari, kimyo sanoati mahsulotlari va plastmassa, rangli va qora metallar (rux, mis, volfram, molibden) hamda ulardan yasalgan buyumlar (kabellar va boshqa o'tkazgichlar), ishlab chiqarishda ishlatiladigan ko'plab turdagi texnika vositalarini ham eksport qiladi. Ayni paytda o'zaro eksport-import qaydnomalarida aks etadigan tovarlar va xizmatlar soni juda ko'p. Sarmoyaviy hamkorlik ko'lamini kengaymoqda. Bu xususda "Gazprom", "Lukoil", "Soyuzneftegaz", "Stroytransgaz", "Volgaburmash" kabi kompaniyalar bilan hamkorlikda yoqilg'i-energetika majmui infratuzilmasini rivojlantirish, geologiya-qidiruv, konlarni aniqlash va o'zlashtirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilayotganini ta'kidlash o'rinlidir. 2007 yilning noyabrida "Lukoil" kompaniyasi bilan hamkorlikda Buxoro viloyati hududidagi "Xauzak" gaz koni ishga tushirilgani bu yo'nalishdagi salmoqli yutuqlardandir.

Sarmoyaviy hamkorlikning rivojini qo'shma korxonalar soni ortib borayotganidan ham bilish mumkin. Ayni paytda O'zbekistonda Rossiya sarmoyasi ishtirokida tuzilgan besh yuzdan ziyod qo'shma korxona faoliyat yuritmoqda. Ular orasida "Petromaruzgaz" (kimyoviy mahsulotlar), "Vim-Bill-Dan – Toshkent" (sut mahsulotlari), "Baltimor-Chelak" (konserva), "Elimpeks" (to'qimachilik), "Elektrozolit" (qurilish materiallari), "Ketgut-Silk" (kimyo va farmatsevtika mahsulotlari), "Pallada Vostok" (attorlik buyumlari) kabi korxonalar ayniqsa muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Yurtimizda Rossiyaning 145 firma va kompaniyasi o'z vakolatxonasini ochgan. Rossiyada esa O'zbekiston sarmoyadorlari bilan birgalikda tuzilgan uch yuzga yaqin qo'shma korxona ishlab turibdi.

O'zaro tovar ayirboshlash ko'lamini tobora kengaytmoqda. O'zbekistonga eksportning uchdan bir qismini, O'zbekistondan importning qariyb yarmini sanoat mahsulotlari tashkizbek l etayotir. Biz O'zbekistonni Markaziy Osiyodagi eng muhim strategik sheriklardir. O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi munosabatlarning mazmunini yanada boyitib, hamkorlikning yangi qirralarini ochishga xizmat qiladigan natijalar bilan yakunlangani ittifoqchilik tamoyillari mustahkamlanib borayotganidan yana bir dalolatdir. Millatlararo hamjihatlik – taraqqiyot asosidir. O'zbekiston va Rossiyaning har ikki davlat uchun muhim bo'lgan sohalarida, jumladan, savdo-iqtisodiy sohada o'zaro manfaatli hamkorligiga asoslangan ikki tomonlama munosabatlari yildan-yilga mustahkamlanib borayotgani ta'kidlandi. 2004 yilda ikki davlat o'rtasida Strategik sheriklik to'g'risidagi bitim, 2005 yilda esa Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi bitim imzolandi va bugungi kunda hamkorlik ushbu hujjatlar asosida yanada rivojlanmoqda. – Ayni paytda Rossiya bilan O'zbekiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar izchil rivojlanmoqda va buning natijasida iqtisodiy hamkorlik yanada mustahkamlanmoqda, – deydi Rossiyaning mamlakatimizdagi savdo vakili Konstantin Artyushin. – O'tgan yili ikki mamlakat o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 6 milliard dollardan oshdi. O'zbekistonda Rossiya investitsiyasi ishtirokida tashkil qilingan 850 dan ortiq qo'shma korxona faoliyat ko'rsatayotgani ikki tomonlama hamkorlikning yorqin dalolatidir. til inson faoliyatining barcha jabhalarida, shu jumladan, biznes sohasida ham muvaffaqiyatga erishishning muhim vositalaridan biri . Shu sababli O'zbekistonda ta'lim rus tilida olib boriladigan o'quv yurtlarida davlat tilini va davlat tilida va davlatimizni rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida har doim alohida e'tibor qaratib keladi. ida e'tibor qaratilmoqda.

– Prezidentimiz Islom Karimov millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlash masalasiga jamiyatimiz vakillarining birgalikda ahil-inoq yashash va mehnat qilish tajribasini millatlararo, diniy hamda etnik asosga ega turli ichki va mintaqaviy nizolarni bartaraf etishda muvaffaqiyatli qo'llash mumkin.

Tarixda turli millat va din vakillarining asrlar davomida bir oiladek yashaganini tasdiqlovchi misollar ko'p. Azaldan turli din, madaniyat va sivilizatsiyalar hamkorligining markazi bo'lgan O'zbekistonimiz buning yorqin dalilidir. Istiqlol yillarida mamlakatimizda istiqomat qiladigan turli millat va elat vakillari o'rtasidagi do'stlik va hamjihatlik yanada mustahkamlandi..

Mamlakatimizda qonuniy manfaatlari himoyasini ta'minlash, bilim olishi, kasb egallashi uchin barcha zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Davlatimiz tomonidan mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan 140 dan ortiq milliy madaniyat markazlarini qo'llab-quvvatlash masalasiga doimiy e'tibor qaratilayotir. Ulardan va Rossiya xalqlarining o'zaro hamjihatligi, ikki tomonlama do'stona munosabatlarni mustahkamlashga ko'maklashish markaz faoliyatining muhim yo'nalishlaridandir.

Shu yillar mobaynida markaz mamlakatimizda rus millati vakillarining boshqa millatlar vakillari bilan do'stlik rishtalarini mustahkamlash, millatlararo aloqalar va hamkorlikni kuchaytirish, milliy madaniyatlarni o'zaro boyitish, ma'naviy qadriyat hamda an'analarni asrab-avaylash va rivojlantirish borasidagi ishlarni amalga oshirib kelmoqda. O'zbekiston bir yuz o'ttizdan ortiq millat va elat vakillari bir oiladek ahil yashamoqda va Vatan ravnaqi yo'lida mehnat qilmoqda.



O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish, o'zbek hamda rus tilining ushbu jarayondagi rolini oshirishga bag'ishlangan davra suhbatlari ham bunga yorqin misol bo'la oladi. Tadbir Respublika rus madaniyat markazi, O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi, Rossiyaning mamlakatimizdagi Savdo vakolatxonasi, Rossiya fan va madaniyat markazi tomonidan tashkil etildi. Unda diplomatik va biznes doiralari, boshqa milliy madaniyat markazlari vakillari, olim va ekspertlar, talabalar ishtirok etdi. 8Shu yillar mobaynida markaz mamlakatimizda rus millati vakillarining boshqa millatlar vakillari bilan do'stlik rishtalarini mustahkamlash, millatlararo aloqalar va hamkorlikni kuchaytirish, milliy madaniyatlarni o'zaro boyitish, ma'naviy qadriyat hamda an'analarni asrab-avaylash va rivojlantirish borasidagi ishlarni amalga oshirib kelmoqda. O'zbekiston bir yuz o'ttizdan ortiq millat va elat vakillari bir oiladek ahil yashamoqda va Vatan ravnaqi yo'lida mehnat qilmoqda.

Siyosiy sohada oliy darajadagi uchrashuvlar muntazamlilik kasb etgani, parlamentlararo aloqalar rivojlanayotganini qayd etish joiz. SHHT, MDH kabi tuzilmalar doirasidagi aloqalar faollashmoqda. O'zbekiston va Rossiya narkotrafik, terrorizm, ekstremizm, transmilliy uyushgan jinoyatchilik kabi tahdidlarga qarshi kurashish borasida ham hamfikrdir. O'zbekistonning "Forish" poligonida, Rossiyaning Krasnodar o'lkasida o'tkazilgan qo'shma aksilterror mashqlar harbiy va harbiy-texnikaviy sohadagi hamkorlik izchil rivojlanib borayotganidan yana bir dalolatdir. ar hamkorligining markazi bo'lgan O'zbekistonimiz buning yorqin dalilidir. Istiqlol yillarida mamlakatimizda istiqomat qiladigan turli millat va elat vakillari o'rtasida4Til inson faoliyatining barcha jabhalarida, shu jumladan, bizn11Siyosiy sohada oliy darajadagi uchrashuvlar muntazamlilik kasb etgani, parlamentlararo aloqalar rivojlanayotganini qayd etish joiz. SHHT, MDH kabi tuzilmalar doirasidagi aloqalar faollashmoqda. O'zbekiston va Rossiya narkotrafik, terrorizm, ekstremizm, transmilliy uyushgan jinoyatchilik kabi tahdidlarga qarshi kurashish borasida ham hamfikrdir. O'zbekistonning "Forish" poligonida, Rossiyaning Krasnodar o'lkasida o'tkazilgan qo'shma aksilterror mashqlar harbiy va harbiy-texnikaviy sohadagi hamkorlik izchil rivojlanib borayotganidan yana bir dalolatdir. ar hamkorligining markazi bo'lgan O'zbekistonimiz buning yorqin dalilidir. Istiqlol yillarida mamlakatimizda istiqomat qiladigan turli millat va elat vakillari o'rtasid es sohasida ham muvaffaqiyatga erishishning muhim vositalaridan biri ekanini ta'kidladilar. Shu sababli O'zbekistonda ta'lim rus tilida olib boriladigan o'quv yurtlarida davlat tilini va davlat tilida va davlatimizni rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida har doim alohida e'tibor qaratib keladi. Mamlakatimizda shakllangan turli din va millat ta'lim beriladigan o'quv yurtlarida rus tilini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasida harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlik to'g'risidagi hujjat ham amalda. Bu yo'nalishdagi aloqalar harbiy mahsulotlar yetkazib berish, harbiy texnikani yangilash, kadrlar tayyorlash, birgalikda mashqlar o'tkazish, koinotni tadqiq etish bo'yicha davlatlararo dasturlar tuzish kabi tadbirlarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston va Rossiya rahbarlarining uchrashuvlarida erishilgan kelishuvlar gumanitar hamkorlikni rivojlantirishda muhim omil bo'lmoqda. O'zbekistonda Rossiya xalqaro ilmiy va madaniy hamkorlik markazining ("Roszarubejsentr") vakolatxonasi faoliyat ko'rsatmoqda.

Ilm-fan va madaniyat namoyandalari hamda jamoat arboblarning tashabbusi bilan 2004 yili Moskvada o'zbek xalqining boy tarixiy-madaniy merosini targ'ib qilishni o'ziga maqsad qilgan "O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi" jamg'armasining taqdimoti bo'lib o'tdi. Mazkur jamg'arma tashabbusi bilan turli ko'rgazmalar, festivallar, madaniyat kechalari o'tkazib kelinmoqda. 2006 yili "Ittifoqchilik munosabatlari sharoitida O'zbekiston va Rossiyaning gumanitar hamkorligi" mavzuida davra suhbatlari o'tkazildi.

Gumanitar hamkorlik yo'nalishida ilm-fan va ta'lim sohalaridagi aloqalar ham ustuvorlik kasb etmoqda. Toshkentda G.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi,

M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, I.Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universitetining filiallari faoliyat ko'rsatayotgani bunga yaqqol misoldir.

Ayni paytda O'zbekiston va Rossiya hali iqtisodiy sohada ham, ijtimoiy sohada ham ishga solinmagan ko'plab imkoniyatlarga ega. Rossiya to'qimachilik korxonalariga O'zbekiston paxta tolasini ko'proq yetkazib berish, Rossiya bozorini saxovatli O'zbekiston zaminida yetishtirilgan noz-ne'matlar bilan to'ldirish kabi misollarning o'zidan bunga ishonch hosil qilish mumkin. Mashinasozlik, avtomobilsozlik, samolyotsozlik, axborot texnologiyalari, koinot tadqiqotlari kabi sohalar tahlil qilinganda esa imkoniyatlar yanada ko'p ekanligi yaqqol ayon bo'ladi.

Siyosiy sohada oliy darajadagi uchrashuvlar muntazamlilik kasb etgani, parlamentlararo aloqalar rivojlanayotganini qayd etish joiz. SHHT, MDH kabi tuzilmalar doirasidagi aloqalar faollashmoqda. O'zbekiston va Rossiya narkotrafik, terrorizm, ekstremizm, transmilliy uyushgan jinoyatchilik kabi tahdidlarga qarshi kurashish borasida ham hamfikrdir. O'zbekistonning "Forish" poligonida, Rossiyaning Krasnodar o'lkasida o'tkazilgan qo'shma aksilterror mashqlar harbiy va harbiy-texnikaviy sohadagi hamkorlik izchil rivojlanib borayotganidan yana bir dalolatdir. O'zbekiston va Rossiya aloqalari har ikila davlatni dustona tinch totuv yashashiga hizmat qiladi.

**Rossiya O'zbekiston o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar har ikki mamlakat manfaatlariga xizmat qiladi va ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar mutlaqo sifat jihatdan yangi bosqichi boshlandi.**

## **XULOSA**

Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xalqaro iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish ahamiyati katta.

Iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish xorijiy investitsiyalarni jalb etish mamlakatlarning o'zaro aloqalarini mustahkamlash tashqi savdo aylanmalarini, ishlab chiqarish xajmini ko'paytirishga ishlab chiqarilayotgan tovarlarni jahon bozoridagi roqobatbardoshligini oshirdi.

Erkin bozorni faoliyat ko'rsatishi uchun yaratilayotgan sharoit mamlakatimizga bo'lgan xorijiy davlatlarning yirik kompaniya va firmalarini qiziqishini ortirib bormoqda, Ayniqsa g'arb va sharq ishbilarmonlarini mamlakatimizga barqaror qiziqishni uyg'otmoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalari sifat jihatdan yangi bosqichga kirdi va tashqi siyosatdagi ustivor yo'nalish bo'lib qoldi. O'zbekiston suverinitetini jahondagi 180 dan ortiq davlatlar tan oldi. 100 dan ortiq mamlakatlar bilan savdo iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirmoqda. O'tgan yillar davomida tashqi savdoda muhim o'zgarishlar yuz berdi va uning tarkibi o'zgardi.

Tashqi savdo aylanmasi tarkibidagi ijodiy o'zgarishlar mustaqillik yillarida mazkur sohaga qaratilgan e'tibor xususan eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni har tomonlama rag'barlantirishni qo'llab -quvvatlashga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosiy natijalari hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlanishida xorijiy investitsiyalar ishtirokida qurilgan korxonalar ham sezilarli o'rin tutmoqda.

Ayniqsa Rossiya, Koreya Respublikasi, AQSh, Buyuk Birtaniya, Shvetsariya, Germaniya Bilan hamkorlikni ahamiyati juda katta.

Rossiya O'zbekiston munosabatlari ham o'zining yangi shakliga ega bo'ldi. Rossiyaga asosan iste'mol tovarlari paxta tolasi, energetika va yoqilg'i mahsulotlar (tabiiy gaz), kimyo sanoati mahsulotlari, mashina va uskunalar, oziq-ovqat mahsulotlari (meva, sabzavot va boshqa) eksport qiladi.

O'zbekiston Rossiya investitsiyasi ishtirokida tashkil qilingan 850 dan ortiq qo'shma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Rossiyaning savdo vakolatxonasi, fan va madaniyat markazi, milliy madaniyat markazi, institutlar filiallari faoliyati rivojlanib bormoqda.

Rossiya- O'zbekiston iqtisodiy munosabatlarida quyidagi qoidalarga rivoya qilinadi.

- Davlat suverenitetini o'zaro tan olish va hurmat qilish;
- Teng huquqli va bir birining ichki ishlariga aralashmaslik;
- Iqtisodiy kuch yoki boshqa taziq uslublarini qo'llashdan voz kechish;
- Baxsli muammolarning keltiruvchi vositalar va xalqaro huquqning boshqa hamma e'tirof qilgan tamoyil va normalari asosida xal qilish va hokazo.

Fikrimizcha tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish va yagona rivojlantirishga to'sqinlik qiladigan muammolarni bartaraf etish mamlakatimizni jahon iqtisodiy ham jamiyatida samaralali ishtirok etishga katta imkoniyat beradi.

Mamlakatimiz eksport salohiyatini rivojlantirish uchun faol eksport strategiyasiga o'tishi, uning tarmoq geografik tarkibini takomillashtirish, valyuta munosabatlarini erkinlashtirish, eksport mahsulotlar turlarini kengaytirish va raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro savdo va iqtisodiy hamkorlikni zamon talablariga javob bera oladigan usul va uslubiyatlardan samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Respublikamiz tashqi iqtisodiy aloqalarini o'stirish uchun albatta unga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarni va infratuzilmani rivojlantirilsa;

- maxsulot eksport qiluvchilarga xizmat ko'rsatadigan va ularni qo'llab quvvatlovchi, yordam beruvchi milliy markaz ishlarini takomillashtirish;
- maxalliy ham xom ashyolardan foydalanib eksport nomenklaturasining yangi maxsulotlar bilan kengaytirish;
- Inson omilini rivojlantirishga;
- Zamonaviy texnika va texnologiyalardan kengroq foydalanish;
- Ishchi xizmatchilarni bilimini va kasb malakalarini takomillashtirish;
- Rossiya O'zbekiston iqtisodiy munosabatlarni yanada kengaytirish;
- Ikki mamlakat iqtisodiy ijtimoiy imkoniyatlardan keng foydalanish muxim ahamiyat kasb etadi.

Taraqqiyot natijalardan ko'rinib turibdiki, davlatning asosiy xal qiluvchi roli mamlakat iqtisodiy hamda eksport salohiyatini rivojlantirish va mustahkamlash, tashqi iqtisodiy aloqalarni erkinlashtirish faoliyat uchun etarli shart- sharoit yaratish xorijiy sarmoyalarni jalb etish bilan takomillashadi va yuksalib boradi. Mamlakat iqtisodiy salohiyati rivojlanib boradi.

## **M U N D A R I J A**

**KIRISH.....**

## **I.BOB. XALQARO IQTISODIY ALOQALARNING MOHIYATI, SHAKLLARI VA NAZARIY ASOSLARI.**

- 1.1. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shakllari, tarkibi va shart-sharoitlari.....
- 1.2. Xalqaro iqtisodiy integratsiya va xalqaro iqtisodiy birlashmalarning xususiyatlari.....
- 1.3. Xalqaro ishlab chiqarish va ilmiy texnikaviy hamkorliklarning mohiyati.....
- 1.4. Xalqaro xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishi va uning o'ziga xos muammolari.....

## **II BOB. ROSSIYA-O'ZBEKISTON RESPUBLIKALARINING IQTISODIY GEOGRAFIK MUNOSABATLARINING ILMIY TAHLILI.**

- 2.1. O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalarining shakllanishi tarkibi, iqtisodiy geografik xususiyatlari.....
- 2.2. Rossiya Federatsiyasi tashqi iqtisodiy aloqalarini tarkibi va iqtisodiy geografik xususiyatlari.....
- 2.3. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo dinamikasi va investitsiya siyosatining mohiyati.....
- 2.4. Rossiya O'zbekiston iqtisodiy munosabatlarining tarkibiy shakllari geografik xususiyatlari va asosiy yo'nalishlari.....

**Xulosa**.....

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**.....